

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT
UNIVERSITETI**

**YOZMA NUTQNI O‘STIRISH METODIKASI
(ma‘ruzalar matni)**

Kafedra: Qirg‘iz-o‘zbek filologiyasi va uni o‘qitish metodikasi

Tuzuvchi: доцент L.Jalolova

Andijon - 2012

Soʻz boshi

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» talablari asosida universitet tizimida tayyorlanayotgan kadrlar zimmasiga juda ulkan masʼuliyatlar yuklatilmoqda. Xususan, bakalavr ixtisosligi boʻyicha tahsil olayotgan talabalardan «Yozma nutqni oʻstirish metodikasi» fani asoslarini qisqa muddatda toʻla oʻzlashtirish talab etiladi.

Nutq madaniyati, namunali nutq (ogʻzaki va yozma) tuzish malakasiga ega boʻlish har bir shaxs umummadaniyatining ajralmas va tarkibiy qismidir. Oʻqitish jarayonida asosiy diqqat-eʼtibor oʻzbek tili birliklarining barcha imkoniyatlarini ochib berish orqali tilimizning naqadar boy ekanligini namoyish etishga, ulardan maqsadga muvofiq foydalana olish malakasini hosil qilishga va ayniqsa, adabiy til meʼyorlariga amal qilgan holda, namunali yozma nutq tuzishga qaratilishini koʻzda tutish darkor. Bu narsa, koʻrinib turibdiki, nutq madaniyati til birliklarining uslubiy imkoniyatlari bilan chambarchas bogʻliq holda hal etilishini taqozo etadi.

Ushbu maʼruza matni Oʻzbekiston Respublikasining «Taʼlim toʻgʻrisida»gi Qonuni va Oliy taʼlimning koʻrsatmalari, yozma nutq va uni oʻstirishga oid eng soʻnggi metodik adabiyotlar asosida tuzildi.

Yozma nutq madaniyati va uni oʻquvchilarda shakllantirish darslaridan asosiy maqsad talabalarning ona tili, yozma nutq bobida olgan bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish, oʻquvchilarda yozma nutqni shakllantirish va oʻstirish yoʻllari, usullarini ular ongiga singdirish, shu asosda savodxonlikning talab darajasida boʻlishini, oʻzbek tili imkoniyatlaridan toʻgʻri hamda oqilona foydalanishni taʼminlashdir.

Bugungi kun oʻqituvchisidan talab qilinayotgan yangi original oʻqitish uslublarini joriy qilish, oʻquvchilarga grammatik, imlo, talaffuz qoidalarini puxta singdirish, ijodiy ishlarni, yozma nutqni мазмундор, ранг- баранг =илиш, фикрни асосли ва изчил бера олиш, ижодий ёзма ишлар (матн тузиш, иншо, баён, реферат, ма=ола) ёза олишда кыникма щамда малакаларни сингдириш ы=ув дастуримизда кызда тутилган асосий вазифаларни ташкил этади.

1-ma'ruza (2 soat)

YoZMA NUTQNING UMUMIY NAZARIY MASALALARI. YoZMA NUTQ MADANIYATI VA UNI O'STIRISH VOSITALARI.

Reja

1. Kirish.
2. Nutq va uning turlari.
3. Yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Yozma nutqqa qo'yiladigan talablar.
5. Yozma nutqni o'stirish yo'llari.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Turdiev B. Yozma nutqni o'stirish yuzasidan praktikum. -T.: O'qituvchi, 1980 (o'quv qo'llanma).
2. Nazarova S. O'zbek tili o'qitish metodikasi. -T.: O'qituvchi, 1992.
3. G'ulomov A. Ona tili o'qitishning metod va printsiplari, -T.: O'qituvchi, 1992 (metodik qo'llanma).
4. G'ulomov A. Ona tili ta'limi mazmuni. -T.: O'qituvchi, 1995
5. G'ulomov A. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. -T.: O'qituvchi, 1998.
6. To'xliiev B., Shamsieva M., Ziyadova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006.

Kishilardagi barcha yaxshi fazilatlar-tilning mahsuli. Ona tilini sevish, uni puxta o'rganish, hosil qilingan malakalarni adabiy talaffuz va imlo qoidalariga muvofiq holda amalda to'g'ri qo'llay bilish madaniylik belgisidir. Madaniy nutq esa orfoepiya, orfografiya hamda uslub talablariga muvofiq so'zlash va yozishdir.

Ona tilimiz-avlodlarni avlodlarga, asrlarni asrlarga ulovchi vosita. Ona tilini mukammal o'rganish jarayonida o'quvchilar uning serviqor qudratini bilib oladilar.

Ona tili o'qitishdan asosiy maqsad o'quvchilarda ona tilida fikrini to'g'ri, aniq, ravshan va go'zal ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir.

So'zlarni to'g'ri tanlash, nutqni tinglovchiga qulay tarzda tuza olish insoniy madaniyatning eng asosiy tarkibiy qismidir.

Shuning uchun har bir so'z, birikma va gapni barcha qirralari bilan to'g'ri, o'rinli ishlata olishni o'rgatish, o'z nutqiga nisbatan ehtiyotkorlik tuyg'usini shakllantirish ona tili mashg'ulotlarining asosiy vazifasi sanaladi.

Biz-o'qituvchilar yangi iqtisodiy-ijtimoiy sharoitda bilimli va egallagan bilimini sharoitga mos ravishda qo'llay oladigan tadbirkor kishilarni etkazib bermog'imiz zarur. Chunki bilimning bilimi omborda yotgan sara urug' bo'lsa, tadbirkorning bilimi erga ekilgan dondir, deydilar.

Arab ijodkorlarning biri «ilmini amalda qo'llay olmagan olim yomg'irsiz bulut, u quyosh yuzini to'sishdan boshqa hech narsa bermaydi», deb ta'kidlaydi.

Tadbirkor o'z bilimini ishga solib, undan samara ola biladi. Har bir sohaning tadbirkorlari bo'ladi. Shuningdek, nutq tadbirkorligini singdirish ona tili mashg'ulotlarining bosh vazifasidir.


Nutq - fikr bayon qilish vositasi bo'lib, og'zaki va yozma shaklda ifodalanadi. Nutq madaniyati to'g'ri so'zlash va yozish, fikrni qisqa va aniq, sodda va obrazli, uslub jihatdan ravon ifodalash demakdir.

Nutq madaniyatiga ega bo'lish uchun dastlab til qoidalarini puxta bilish lozim. Tilning lug'at tarkibi va grammatik qurilishi haqida etarli bilimga ega bo'lmay turib, yozma nutqni oshirish mumkin emas.

Yozma nutqni grammatik jihatdan to'g'ri qurish va so'zlarni o'rinli qo'llash uchun nazariy bilim bilan birga uzluksiz mashq olib borish muhim o'rin tutadi. Chunki uzluksiz mashq qilib borish natijasidagina yozma nutq sohasida muhim ko'nikma va malakalarga ega bo'lish mumkin. Grammatik qoidalarining etarli o'zlashtirilmasligi, yozma nutqda ifodalash malakasining etishmasligi yozma ishlarda xatolarga yo'l qo'yilishining asosiy sababidir. Shuning uchun nutqni o'stirish bevosita tilning grammatik qurilishini va lug'at tarkibini mukammal o'zlashtirish bilan bog'liq. Badiiy asarlarni muntazam o'qib borish, ulardan zarur joylarini ko'chirib olish, parchalar yodlash, matn yuzasidan turli yozma ishlar olib borish yozma nutqni o'stirishga yordam beradi.

Inson nutqining rivojlanishi, mazmundorligi, nutqning nechog'li mantiqiyliigi, umuman, fikrlash qobiliyati uning badiiy adabiyotga munosabati bilan belgilanadi.

Nutq turli shaklga ega bo'lib, quyidagicha tasnif qilinadi:



Nutq ko'pincha ovoz chiqarmasdan, o'ylash jarayonida ham ifodalanadi. Bunday nutq odam o'z ichida gapiradigan (professor P.I.Ivanov ta'biricha), ya'ni passiv nutqdir. Shuning uchun bu ichki nutq o'z-o'ziga qaratilgan bo'ladi va unda ikki kishining qatnashishi shart emas.

Ichki nutqning ahamiyati shundaki, u og'zaki va yozma nutqning asosi sifatida o'ziga xos o'rin tutadi.

Tashqi nutq aktiv fikrlashni talab qiladi. Bunday nutq og'zaki va yozma shaklda amalga oshiriladi.

Odatdagi tovushli so'zlashuv jarayoniga og'zaki nutq deyiladi. Bundan tashqari, kishilar paralingvistik, ekstralingvistik vositalar orqali ham o'z fikr – tuyg'ularini boshqalarga etkazadi.

Og'zaki nutq ikki shaklda bo'ladi: monolog va dialog. Monologik nutq-bir kishining ko'pchilikka qaratilgan fikrlarining ifodasi. U ko'pincha hikoya qilish shaklida amalga oshiriladi. Ba'zan ichki dialog xarakterida, ya'ni o'zi savol berib, javob berish shaklida ham uchraydi.

Dialogik nutq ikki va undan ortiq shaxs o'rtasida amalga oshiriladi.

Og'zaki nutq bilan yozma nutq o'zaro mustahkam aloqada rivojlanib boradi. Biri ikkinchisiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Og'zaki nutq pauza, urg'u, intonatsiya va tovushlar orqali tinglovchiga borib etsa, yozma nutq harf va so'zlarning ma'lum qonuniyat asosida o'zaro birikuvi, tinish belgilari, har xil ajratishlar: abzatslar, paragraflar va gaplarni grammatik jihatdan aniq va tushunarli bayon etish orqali borib etadi.

Ularning farqi shuki, ogʻzaki nutqni eshitamiz, yozma nutqni koʻramiz va oʻqiymiz. Yozma nutqda savodxonlik va mazmun asosiy oʻrin tutadi.

Yozma nutqqa qoʻyiladigan talablar:

1. Har bir soʻz, har bir jumla mazmunni va muallif maqsadini ochishga xizmat etishi, shuningdek, nutq ixcham, izchil va mantiqli ifodalanishi zarur.

2. Yozma nutqdagi fikr qiziqarli, ifodali, uslub jihatdan sodda va ravon bayon etilishi kerak.

3. Bildirilgan fikrlar asosida zarur xulosa chiqarishga alohida eʼtibor berish zarur.

Yozma nutqning mohiyatli chiqishi uchun material yigʻilgandan soʻng ularni sistemallashtirish, reja tuzish, ishning xomaki nusxasini tayyorlash, matn ustida qayta ishlab, takomillashtirish va oqqa koʻchirish zarur.

Yozma nutqning sifati fikrning mustaqil ravishda bayon etilishi bilan belgilanadi.

Yozma nutq turli yozma ishlar orqali yuzaga chiqadi. (Biz bu haqda keyinga maʼruzalarda toʻxtalamiz)

Nutqning ikkinchi turi, yaʼni yozma nutqni rivojlantirish ogʻzaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki u oʻquvchidan grammatik va mazmun jihatdan toʻgʻri jumla qurishni, har bir soʻzni oʻz oʻrnida qoʻllashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatdan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Yozma nutqning murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bogʻliq. Soʻzni toʻgʻri yozish, tinish belgilarini oʻrinli qoʻllash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish oʻquvchidan katta masʼuliyatni talab etadi. ana shu sababli nutqning bu turini oʻstirish ancha sekin va murakkab kechadi.

Yozma nutqning oʻziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir. Bu jihatdan u ogʻzaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. Oʻquvchi yozma nutqidagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarida bu xato va kamchiliklarga yoʻl qoʻymaslikka intiladi.

Ona tili oʻqituvchisi yozma ishlarida mazmunga, mavzudan chetga chiqmaslikka, faqat imlo va tinish belgilarigagina emas, balki bayon qilinayotgan fikrning asosli dalillarga ega boʻlishi, materialning toʻgʻri joylashtirilishi, fikrning nutq sharoitiga mos holda toʻgʻri bayon qilinishiga ham eʼtibor qaratishi lozim.

Ona tili mashgʻulotlarida shunday holatni vujudga keltirish lozimki, oʻquvchi yaratgan matnidan qoniqish hosil qilsin. Bu uni oʻz nutqini takomillashtirib borishga ilhomlantiradi.

Oʻquvchi nutqiga qoʻyiladigan talablar:

1. Nutqning nutq sharoitiga mosligi.

Nutq sharoiti nutq shaklini belgilashda juda muhim omildir. Chunonchi, bir-biridan uzoqda boʻlgan soʻzlovchi va tinglovchi faqat yozma nutq (yaʼni xat, maktub, axborot, voqiʼanavislik va hokazo) vositasida fikr almasha oladi. Shuning uchun bolalarni maktub yozishga oʻrgatish ayni bir fikrni turli shaklda bayon etish koʻnikmalarini shakllantirishga samarali taʼsir koʻrsatadi.

2. Nutqning mazmundorligi. Oʻquvchi faqat bilgan narsalarini, oʻzi xabardor boʻlgan voqea–hodisalarni ogʻzaki va yozma shakllarda bayon qila oladi. Aniq dalillar, kuzatish va taassurotlar, his – tuygʻular asosida yaratilgan fikrgina oʻzgalar diqqatini oʻziga tortadi. Mazmunsiz fikr soʻzlovchining oʻziga ham, oʻzgalarga ham yoqmaydi.

Suhbat, hikoya, insho uchun oʻqilgan badiiy asarlar, tomosha qilingan sahna asarlari va kinofilmlar, shaxsiy kuzatish va taassurotlar, kundalik hayot voqealari boy material boʻlib xizmat qiladi.

3. Nutqning toʻgʻri, aniq va izchil boʻlishi. Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan boʻlsagina, uning taʼsirchanligi ortadi. Buning uchun oʻquvchidan narsa, voqea, hodisaga sinchkovlik bilan qarash, ularga toʻgʻri baho bera bilish, shu yoʻl bilan nutqni muntazam va izchil qurish, uni isbotlay bilish talab etiladi. Oʻquvchi fikrini bayon qilayotganda bir fikrni

ikkinchisi bilan mantiqan to'g'ri bog'lay olishi, mavzuga aloqador bo'lgan asosiy fikrlarni ikkinchi darajali fikrlardan farqlay bilishi zarur.

Nutq - mantiqan fikrlash mahsuli. U taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyat usullari bilan chambarchas bog'langan.

Taqqoslash shunday bir mantiqiy usuldirki, u bilan moddiy olamdagi narsalar va voqealarning bir-biriga o'xshashligi va farqi aniqlab olinib, shu asosda hukm hamda xulosalar chiqariladi. O'quvchi bu faoliyat usulidan foydalanmay turib, mantiqan to'g'ri fikr yurita olmaydi.

Nutqning mantiqiy to'g'riligi esa avvalo fikrlarning aniq va bir-biriga izchil bog'langan bo'lishi, fikr yuritilayotgan mavzudan chetga chiqmaslik, mazmunda mantiqiy ziddiyatlar va mujmal jumlar bo'lmashligi, hukm va xulosalar asosli, ishonarli bo'lishi demakdir.

4. Nutqning boy va rang-barang bo'lishi avvalo fikrni bayon qilishda o'zbek tilining leksik imkoniyatlaridan, shuningdek, nutqning badiiy qiymatini oshiruvchi vositalardan, badiiy asarlardan olingan parchalar va yorqin adabiy timsollardan, o'zbek xalqining qochiriq so'zlari va frazeologik iboralaridan, o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, istiora, mubolag'alardan, ritorik so'roq gaplardan foydalanishda namoyon bo'ladi. Tilning bu tasviriy vositalari nutqqa go'zallik, joziba va rang-baranglik baxsh etadi.

5. Нут=нинг грамматик жищатдан ты\ри =урилган былиши.

O'quvchi so'z, so'z birikmasi va gaplarni bir-biriga bog'lash, egalik va kelishik qo'shimchalarini o'rinli qo'llash, gapning ega va kesimini moslashtira olish kabi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

6. Nutqning soddaligi va sofliigi. Sodda nutq tushunarli bo'ladi. Buning uchun matnda fikr lo'nda, aniq bayon qilinishi kerak. Tushunarsiz, g'aliz jumalardan saqlanish lozim.

Nutqning sofliigi uning tozaligi demakdir. Nutqni har xil qaytarishlar, ortiqcha jumlar, o'zbek tiliga xos bo'lmagan so'zlardan tozalab borish, fikrni sof adabiy tilda, tilning boy imkoniyatlaridan foydalanib bayon qilish yozma nutqning soddaligini ta'minlaydi.

Yuqoridagi talablar o'zaro chambarchas bog'langan. Bu talablarga doimo amal qilish yo'li bilan nutq o'stirish samarali kechadi.

Ona tili o'qitish jarayonida yozma nutqni o'stirishning asosiy yo'nalishlari:

1. O'quvchilarning so'z boyligini oshirish.
2. O'quvchilarda lug'atlardan foydalanish malakalarini shakllantirish.
3. O'quvchilarning gap ustida ishlash va gap tuzish mahoratini kengaytirish.
4. Matn yaratish ustida ishlash.
5. Matn ustida ishlash.
6. O'quvchilarni incho yozishga o'rgatish.
7. O'quvchilarga ish qog'ozlaridan foydalanishni o'rgatish (bu masalaga keyingi ma'ruzalarda to'xtalamiz).

Tekshirish savollari

1. Ona tili o'qitishning maqsad va vazifalarini tushuntiring.
2. Nutq tadbirkorligi nima ?
3. Nutq madaniyati (madaniy nutq) haqida gapiring.
4. Nutq va uning turlarini izohlang.
5. Yozma nutqning murakkab tabiati va o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.
6. Yozma nutqqa qanday talablar qo'yiladi ?
7. O'quvchi nutqiga qo'yiladigan talablar.
8. Yozma nutqni o'stirishning asosiy yo'nalishlari.
9. O'quvchilarda lug'atlardan foydalanish malakalari qanday shakllantiriladi ?
10. Matn ustida ishlash va uning o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.
11. O'quvchilarning yozma nutqini o'stirishga mo'ljallangan matnlar va ular ustida ishlash usullari haqida ma'lumot bering.

Tayanch tushunchalar

Til va nutq masalasi, ichki va tashqi nutq, passiv va aktiv nutq, ogʻzaki va yozma nutq, monologik va dialogik nutq.

Madaniy nutq, nutq tadbirkorligi, yozma nutqqa qoʻyiladigan talablar, nutq oʻstirish yoʻllari.

2-maruza (2 soat)

IMLO QOIDALARI VA YOZMA NUTQ. YANGI IMLO QOIDALARI VA UNDAGI OʻZGARISHLAR. IMLO LUGʻATI USTIDA ISHLASH

Reja

1. Lotin yozuviga asoslangan imlo qoidalarini va uning kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalaridan farqi.
2. Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalarini.
3. Oʻquvchilar ongiga asosiy imlo qoidalarini singdirish.

Adabiyotlar

1. Mualliflar guruhi. Maktabda oʻzbek tili va adabiyoti oʻqitishning forma va metodlarini takomillashtirish. - T.: Oʻzbekiston Respublikasi maorif ministrligi. 1989, 118-bet.
2. Togʻaev T., Tavaldieva G., Akromova M. Oʻzbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lugʻati. -T.: Sharq, 1999.
3. Turdiev B. Yozma nutqni oʻstirish yuzasidan praktikum. -T.: Oʻqituvchi, 1980. (oʻquv qoʻllanma).
4. Toʻxliiev B., Shamsieva M., Ziyadova T. Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi. T.: Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgʻarmasi, 2006.
5. Gʻulomov A. Ona tili oʻqitishning metod va printsiplari, -T.: Oʻqituvchi, 1992 (metodik qoʻllanma).
6. Nazarova S. Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi. -T.: Oʻqituvchi, 1992.

Oʻzbek tiliga davlat tili maqomining berilishi ona tilimiz uchun ulkan taraqqiyot, rivojlanish, bitmas-tuganmas boy bisotini namoyish etish omili boʻldi. Ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan keyin oʻzbek tilining leksik qatlamida misli koʻrilmagan oʻzgarishlar boʻldi: «eskirgan soʻz» tamgʻasi bosilgan koʻplab leksikonlar oʻz lisoniy maqomiga ega boʻldi, xalq tili bisotida qolib kelayotgan minglab soʻzlar adabiy til sathida faollashdi, yangi soʻzlar yasaldi, fan-texnika, tibbiyot, iqtisodiyot, huquq, sport va boshqa sohalarga oid koʻplab yangi soʻzlar tilimizga kirib keldi; ish yuritish oʻzbek tiliga koʻchdi, atamashunoslik qoʻmitasi tashkil etilib, turli sohalarga doir fanniy lugʻatlar tayyorlandi.

Tilimiz taraqqiyoti bilan bogʻliq ushbu oʻzgarishlar, islohotlar imlo lugʻatida oʻz aksini topdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **1995 yil 24 avgustdagi 339 – son** qarori oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlashga bagʻishlandi. Bu hukumatning «Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini joriy etish toʻgʻrisida»gi Qonunini bajarish maqsadida qilingan qaror edi.

Lotin alifbosiga oʻtish tufayli imlo qoidalaridagi **tovush-harf munosabatiga bagʻishlangan qism qayta yozildi, unda qaysi harf qaysi tovushni koʻrsatishi toʻliq aks ettirildi. Lotin alifbosiga oʻtish munosabati bilan kirill alifbosidagi yo, yu, ya harflari. ', belgilaridan voz kechildi,** ammo bunday harf va belgi qatnashadigan soʻzni, lotin alifbosiga oʻtgach, qanday yozish kerakligi imlo qoidalarida taʼkidlanmadi. Chunki bunday soʻzlarning toʻgʻri yozilishi avvalo imlo lugʻatida oʻz aksini topgan va alifboni oʻrganish maqsadida yaratilgan oʻquv qoʻllanmasida bayon qilingan.

Kirill yozuvidagi imlo qoidalariga ko'ra juft so'zlar qismlari orasida –u (-yu) bog'lovchisi kelsa, kechayu kunduz, nonu tuz shaklida qo'shib yoziladi. **Yangi imlo qoidalariga ko'ra –u (-yu) bog'lovchilaridan oldin chiziqcha qo'yiladi va juft so'z qismlari ajratib yoziladi: do'st-u dushman, non-u tuz kabi.**

Kirill yozuvidagi imlo qoidasiga ko'ra yil, oyni ko'rsatib kelgan arab raqamlari bilan ifodalangan tartib sonlardan keyin chiziqcha qo'yilmay yoziladi.

Lotin yozuvidagi imlo qoidalarida esa tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, **-inchi qo'shimchasi o'rnida hamma vaqt chiziqcha (-) qo'yilishi belgilab qo'yilgan. Masalan: 2007- yil, 20-noyabr kabi.**

Lotin yozuviga asoslangan **o'zbek tilining asosiy imlo qoidalar** quyidagilardan iborat:
Harflar imlosi: unlilar imlosi, undoshlar imlosi (takror undoshlar imlosi)

1. Asos va qo'shimchalar imlosi.
2. Qo'shib yozish.
3. Chiziqcha bilan yozish.
4. Ajratib yozish.
5. Bosh harflar imlosi
6. Ko'chirish qoidalar

Imlo quyidagi qoidalarga asoslanadi:

1. Fonetik yozuv. So'z va qo'shimchalar qanday aytilsa, shunday yoziladi: yoz, o'qi, lug'at, senda, buloqqa, og'iz-og'zi, yosh-yasha, sana-sanoq kabi.

2. Morfologik yozuv. So'z va qo'shimchalar talaffuzga qarab emas, qabul qilingan qoidalar asosida yoziladi. Masalan: tuzsiz emas, tuzsiz; ketdi emas, ketdi kabi.

3. Shakliy yozuv. Boshqa tillardan kirgan so'zlar qanday yozilgan bo'lsa, shu shakl saqlanadi. Masalan: ustol emas, stol; tanka emas, tank; tiatr emas, teatr; sollot emas soldat kabi.

O'quvchilarga shu qoidalar asosida unlilar, undoshlar, asos va qo'shimchalar imlosini batafsil tushuntirish kerak.

Ularda quyidagi hollarda ko'plab xatolar uchraydi:

1. Takror undoshlar imlosida harfiy xatolar. Bu hol mazmunga ta'sir qilishi uqtirilishi lozim. Masalan: qattiq-qatiq, essiz-esiz, tilla-tila kabi.

2. O'zak va qo'shimchalar imlosi. Bunda o'zakka qo'shimcha qo'shish bilan yuz beradigan tovush o'zgarishlari o'quvchilar ongiga singdirilsa, xatolar oldi olinadi. Masalan: a) tovush almashishi: qishlaQv- qishlov, o'qiQv-o'quv;

b) tovush tushishi: shaharim-shahrim, ulug'Qay-ulg'ay. pastQay-pasay;

v) tovush ortishi: uQga-unga, shuQday-shunday, buQda-bunda...

1.Qo'shma so'zlar imlosida qo'shib yoziladigan so'zlar borasidagi quyidagi ma'lumotlar o'quvchilarga uqtirilishi zarur:

1. Ikki yoki uch so'z qo'shilib, yangi bir ma'no ifodalasa, qo'shib yoziladi: Oltiariq, Buloqboshi kabi.

2. Qo'shma fe'llarning ikki turi qo'shib yoziladi. M: a) ayta oldim – aytaoldim; b) ishlay beramiz – ishlayveramiz.

3. Xona, noma, poya, ham, sifat, umum kabi so'zlar bilan yasalgan qo'shma ot va sifatlar qo'shib yoziladi: ishxona, bedapoya, hamkor, ma'lumotnoma, devsifat, umummillat.

4. – (a)r, – mas qo'shimchasi yordamida yasalgan qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi: ishyoqmas, otboqar kabi.

Qo'shma so'zlar quyidagi hollarda ajratib yoziladi:

1. Qo'shma so'zlarning qismlari bir-birini izohlasa: tilla soat, temir eshik, til oldi.

2. Qo'shma fe'llar: yozib ol, sir tut.

3. Ham, hech, har, u, bu so'zlari bilan yasalgan ot va ravishlar: har kim, hech qachon, u erda.

4. Sifatlar oldidan to'q, tim, jiqqa kabi so'zlar kelsa: liq to'la, tim qora, jiqqa ho'l.

5. Belgining ortiqlik darajasini ko'rsatuvchi ko'pdan ko'p, yangidan yangi, ochiqdan ochiq kabi so'zlar.

Shu tariqa qisqartma soʻzlar imlosi, bosh harflar imlosi, tinish belgilarining ishlatilishiga doir bilimlar singdirib borilsa, oʻquvchilarning savodxonlik darajasi, yozma nutqi rivojlanib boradi, orfografik xatolarning oldi olinadi. Albatta, muntazam amaliy ishlar olib borish, natijasini oʻquvchilar oʻrtasida muhokama va tahlil qilib borish talab etiladi.

Tekshirish savollari

1. «Lotin yozuviga asoslangan oʻzbek alifbosini joriy etish toʻgʻrisida»gi Qonun haqida gapiring.
2. Lotin yozuviga asoslangan imlo qoidalarini tasdiqlash haqidagi qaror xususida soʻzlang.
3. Lotin yozuviga asoslangan imlo qoidalarining kirill alifbosi asosidagi imlo qoidalaridan farqi nimada ?
4. Oʻzbek tilining asosiy imlo qoidalari nimalardan iborat ?
5. Imlo qaysi qoidalarga asoslanadi ?
6. Fonetik yozuv qoidasini tushuntiring.
7. Misollar asosida morfologik yozuv qoidasini izohlang.
8. Shakliy yozuv qoidasi haqida soʻzlang.

Tayanch tushunchalar

Imlo qoidalari, fonetik yozuv, morfologik yozuv, shakliy yozuv qoidasi. Imloning maʼlum qoidalarga asoslanishi. Lotin yozuviga asoslangan imlo qoidalari. Qoʻshib va ajratib yoziladigan qoʻshma soʻzlar, juft va takror soʻzlarning yozilishi, ularni oʻquvchilarga oʻrgatish.

3-maʼruza (2 soat)

YOZMA NUTQNI SHAKLLANTIRISHDA YOZMA ISHLARNING OʻRNI. YOZMA ISH TURLARI. ASOSIY VA YORDAMCHI XARAKTERDAGI YOZMA ISHLAR

Reja

1. Yozma nutqni shakllantirishda, oʻquvchilarning savodxonligini oshirishda yozma ishlarning ahamiyati.
2. Yordamchi xarakterdagi yozma ishlar va ularning turlari.
3. Asosiy yozma ishlar va ularning turlari.

Adabiyotlar

1. Ismatov S. Oʻrta maktabning yuqori sinflarida insho. -T.: Oʻqituvchi, 1973.
2. Turdiev B. Yozma nutqni oʻstirish yuzasidan praktikum. -T.: Oʻqituvchi, 1980. (oʻquv qoʻllanma).
2. .Gʻulomov A. Ona tili oʻqitishning metod va printsiplari, -T.: Oʻqituvchi, 1992 (metodik qoʻllanma).
3. Nurmonov A, Yusupova Sh. Bayonlar toʻplami. Andijon-1992.
4. Nazarova S. Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi. -T.:Oʻqituvchi, 1992.
5. Nurmonov A, Yusupova Sh. Diktantlar toʻplami. Andijon-1994.
6. Toʻxliiev B.,Shamsieva M., Ziyadova T. Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi. T.: Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgʻarmasi, 2006

Yozma nutqning murakkab jarayon ekani, u koʻp vaqt va murakkab mehnat talab etishi, bunday nutq davomida oʻquvchining oʻz-oʻzini kuzatib borishi oni tili va adabiyot oʻqituvchilariga juda yaxshi maʼlum. Yozma nutqda savodxonlik va mazmun asosiy oʻrin tutadi.

Yozma ishlar asosan ikki katta guruhga boʻlinadi:

1. Yordamchi xarakterdagi yozma ishlar.
2. Asosiy yozma ishlar.
1. Yordamchi xarakterdagi yozma ishlar asosiy yozma ishlar - bayon va insho uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

2. Yordamchi xarakterdagi yozma ishlar ko‘pincha badiiy asarlar matnini o‘rganish bilan bog‘liq holda o‘tkaziladi. Bunday yozma ishlarning asosiy maqsadi talabalarning nutqini o‘stirishga, kitob ustida mustaqil ishlashga qaratiladi.

3. Bunday yozma ishlar asosiy yozma ishlar uchun zarur materiallar tanlash, matndan muhim faktlar, misollar, sitatlar keltirish, fikrni reja asosida izchil yoritish, tezis, konspekt tuzish kabi malakalarni egallashda yordam beradi.

4. Yordamchi xarakterdagi yozma ishlar:

Lug‘at ustida ishlash. Lug‘at ustida ishlash yozma nutqni o‘stirishning boshlang‘ich nuqtasidir. Lug‘at imlo savodxonligini oshirish, so‘z boyligini kengaytirishning muhim manbai, o‘quvchining asosiy maslahatchisidir.

Lug‘atdan foydalanish malakalarini shakllantirish, avvalo, ularda ehtiyojni tarbiyalashdan boshlanadi. Chunki ehtiyoj bo‘lmasa, o‘quvchi lug‘atga murojaat qilmaydi. Ma‘lum bir so‘zning imlosi, ma‘nosi, ma‘nodoshiga qarama-qarshi ma‘nosi, uyadoshini bilish zaruriyati ehtiyojni keltirib chiqaradi.

O‘quvchilarni ular faoliyatida zarur bo‘ladigan lug‘at turlari bilan tanishtirishga alohida e‘tibor berish kerak. Chunki turli lug‘atlar bilan tanishgan o‘quvchi nimani o‘rganish kerakligini ham yaxshi biladi.

Lug‘atlarning turi ko‘p. Akademik lug‘atlar maktab o‘quvchilari uchun ancha qiyinlik qiladi. Bugungi ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilar uchun ixtisoslashtirilgan «O‘zbek tilining izohli lug‘ati», «O‘zbek tilining uyadosh so‘zlar lug‘ati», «O‘zbek tilining ma‘nodosh so‘zlar lug‘ati» kabilarga ko‘proq zaruriyat sezilmoqda.

Lug‘atlardan tez va to‘g‘ri foydalanish uchun o‘quvchi alfavit tartibini yaxshi bilishi kerak. Lug‘at bilan ishlash uchun zarur malakalardan yana biri ulardan maqsadga muvofiq foydalanishdir. Topshiriqni bajarish uchun qaysi lug‘atga murojaat etish kerakligini bilgan bola undan samarali foydalana oladi.

«Imlo lug‘ati» bilan ishlash o‘quvchilarning faqat imlo savodxonligini emas, balki so‘z boyligini oshirishga ham yordam beradi.

O‘zbek tilining barcha bo‘limlarini o‘rganishda «Imlo lug‘ati» dan foydalanishni yo‘lga qo‘yish kerak.

Lug‘at ustidagi ish oddiy va tasodifiy mashg‘ulotlar bo‘lib qolmasligi, balki muntazam va qat‘iy rejaga tayanadigan, uzoq va oliy maqsadlarga xizmat qiladigan, uzluksiz tizim tarzida amalga oshishi kerak.

Lug‘at ustida ishlaganda har bir so‘zning amaliy jihatlariga, amaliy ahamiyatiga alohida e‘tibor berish zarur bo‘ladi. Har bir so‘zning o‘quvchi shaxsining dunyoni bilish va o‘zlashtirishdagi, uning nutqiy faoliyatidagi muayyan bir xizmatlari bo‘lishini ta‘minlash shart.

So‘z ma‘nolari ustidagi ish murakkabdir. Har doim matn ustida ishlaganda yangi so‘zlarga va so‘zlarning yangi ma‘nolarda qo‘llanganiga e‘tiborni tortish o‘quvchilarning bu sohadagi ko‘nikma va malakalarining shakllanishi va takomillashishiga imkon beradi. Buning uchun amaliyotda qo‘llaniladigan ayrim shakl va usullarni eslatish mumkin:

1. Yangi so‘zning ma‘nosini izohli lug‘at vositasida oydinlashtirish.

2. Berilgan so‘zning ma‘nodoshlarini topish.

3. Matndagi so‘zning ma‘nosiga zid bo‘lgan boshqa so‘zlarni keltirish.

4. So‘z yasallishiga oid tahlilni amalga oshirish.

5. So‘zning kelib chiqishiga oid tahlil bilan shug‘ullanish, ya‘ni so‘zning etimologiyasini aniqlash.

6. So‘zning o‘z va ko‘chma ma‘nolarini, ular orasidagi bog‘lanishlarni aniqlash.

7. So‘z ma‘nosini izohlash va imkoniyatga qarab, boshqa tillarga tarjima qilish

Yordamchi xarakterdagi yozma ishlarning yana quyidagicha ko‘rinishlari mavjud:

Turli ko‘chirib yozishlar.

Ulardan biri, ya‘ni matn ustida ishlashning o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tamiz:

1. Til hodisalarining mohiyatini anglashga mo'ljallangan matnlar. O'quvchi bunday matnda til hodisalarini kuzatish, taqqoslash, guruhlarga ajratish, umumlashtirish asosida umumiy xulosalarga keladi. Bu matnlar asosan amaliy yo'nalishda bo'lishi kerak.

O'quvchilarning yozma nutqini o'stirishga mo'ljallangan matnlar va ular ustida ishlash:

1. Matndan zarur o'rinlarni ko'chirib yozish.
2. Badiiy asar qahramonlari nutqidan zarur o'rinlarni ko'chirib yozish.
3. Matn mazmunini saqlagan holda shaklini o'zgartirib yozish.
4. She'riy asarlar mazmunini hikoyaga aylantirib yozish.
5. Matn mazmuni asosida reja tuzib yozish.
6. Savol va topshiriqlarga javob yozish.
7. Matn mazmunini qisqartirib yozish
8. Matn mazmunini kengaytirib yozish.

9. Ilmiy uslubda berilgan matnni badiiy uslubga aylantirib yozish. Bu adabiy nutq me'yorlaridan unumli foydalanishni talab etadi.

Biz yuqorida yozma nutqni rivojlantirishning ayrim muhim yo'llarini sanab o'tdik. Eng muhimi, bu usullarni bir marta qo'llash bilan cheklanib qolmay, balki ularni tez-tez qo'llab turish maqsadga muvofiqdir.

Tekshirish savollari

1. Yozma nutqni shakllantirishda, o'quvchilarning savodxonligini oshirishda yozma ishlarning ahamiyati haqida gapiring.
2. Yozma ishlarning qanday turlari mavjud ?
3. Yordamchi xarakterdagi yozma ishlar va ularning turlarini izohlang.
4. Lug'at ustida ishlash haqida gapiring.
5. Turli ko'chirib yozuvlarning ko'rinishlarini izohlang.
6. Asosiy yozma ishlar va ularning turlari hamda ahamiyati xususida gapiring.

Tayanch tushunchalar

Asosiy yozma ishlar, diktant, bayon, insho. Yordamchi xarakterdagi yozma ishlar, lug'at ustida ishlash, turli ko'chirib yozuvlar.

4-ma'ruza (2 soat)

DIKTANT VA UNING TURLARI. TA'LIMiy VA TEKSHIRUV DIKTANTLARI

Reja

1. Diktant va uni o'tkazishning ahamiyati.
2. Diktant turlari.
3. Diktant o'tkazish tartibi.
4. Diktantni tekshirish, xatolarni tasnif qilish va baholash.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G'. Punktuatsiya o'qitish metodikasi. -T.: O'qituvchi, 1968.
2. Turdiev B. Yozma nutqni o'stirish yuzasidan praktikum. -T.: O'qituvchi, 1980 (o'quv qo'llanma).
3. Nazarov K. O'zbek tili va adabiyotidan baho me'yori. T.: -O'qituvchi, 1990.
4. Nurmonov A, Yusupova Sh. Diktantlar to'plami. Andijon-1994.
5. Tog'ae'v T., Tavaldieva G., Akromova M. O'zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati. -T.: Sharq, 1999.

Diktant – o‘qituvchining aytib turishi bilan o‘quvchilar tomonidan amalga oshiriladigan yozma ish turi. Diktant faqat bilimlarni tekshirish metodi bo‘lib qolmay, ayni vaqtda ularni mustahkamlash metodi hamdir. Chunki u o‘rganilgan mavzuga oid matn va topshiriqlar asosida o‘tkaziladi.

Ta‘lim shaklida diktantlarning xizmati benihoya kattadir. Diktantlarning maktabda o‘quvchilarga imlo va punktuatsiya o‘qitishdagi katta xizmati shundaki, diktant yozish jarayonida yozuv orqali o‘quvchilarning aqliy faoliyati rivojlanadi. O‘quvchi o‘qituvchi aytib turgan jummalarni va so‘zlarni yozadimi yoki o‘z fikrini erkin yozadimi, baribir, u ongli ravishda og‘zaki nutqni yozma shaklga ko‘chiradi. Dastlab o‘qituvchi - so‘zlovchining nutqini tinglovchi o‘quvchi mazmun jihatdan idrok qiladi. So‘zlovchining fikrini yozuvga ko‘chirish jarayoni boshlanganda esa o‘quvchi gapdagi so‘zlarning tovush tarkibi va gaplarning ohangiga e‘tibor beradi, tovush va harflarni o‘zaro qiyoslaydi, ohangni ma‘lum tinish belgilari bilan ko‘rsatishga harakat qiladi.

O‘quvchi diktant yozishda doimo o‘zining ichki nutqiga asoslanadi. Yozish jarayonida o‘quvchining nutq organlari so‘zlarni bilinar-bilinmas talaffuz qilgani holda ularni harflarga ko‘chira boshlaydi.

Ma‘lum harflar tushirib qoldirilgan so‘zlarni to‘g‘ri yozish talab qilingan mashqlarda ham o‘quvchi so‘zni avval to‘lig‘icha ichida talaffuz qiladi va tushirib qoldirilgan tovushga muvofiq keladigan harfni topadi. Shuning uchun ham o‘quvchi tovush va harf munosabatini juda yaxshi bilishi lozim bo‘ladi.

Tovush o‘ziga muvofiq keladigan harfiy ifodasiga ega bo‘lganda, o‘quvchi bunday tovushlarni harflarga aylantirishda qiyinchilik sezmaydi. Lekin ayrim hollarda, xususan, kuchsiz holatga kelganda, tovushlar o‘zining to‘liq talaffuziga ega bo‘lmaydi. ana shunday vaqtlarda o‘quvchi orfogrammani yozishda qiynalib qoladi. M: obot talaffuz qilinsa ham, obod yoziladi. Bunday holatlarning sababini o‘quvchiga tushuntirish kerak.

Shunday qilib, o‘quvchi diktant jarayonida so‘zlarni tovushlarga ajratish va tovushni harflarga solishtirish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Eng muhimi tovush va harfning bir-biriga muvofiq keladigan va muvofiq kelmaydigan holatlari borligini ajratib oladi. Muvofiq kelmaydigan holatlarning sababini bilib oladi.

O‘quvchilarda to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini shakllantirishda xilma-xil diktant turlaridan foydalaniladi. Garchi diktantlarning barchasi ta‘limiy xususiyatga ega bo‘lsa ham, lekin ma‘lum bir mavzu o‘tilgandan so‘ng, shu mavzuni o‘quvchi qanchalik o‘zlashtirganini sinamoq uchun alohida diktant turi o‘tkaziladi, bunday diktant ta‘limiy diktant nomi bilan yuritiladi.

Diktantning turli ko‘rinishlari mavjud:

1. Ijodiy diktant. Ijodiy diktant o‘quvchilar nutqini o‘stirishda, orfografik ko‘nikmalarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Ijodiy diktant turlari:

1. O‘quvchilarga o‘rganilgan orfogrammalar tavsiya qilinadi va ulardan shu orfogrammalar ishtirok etgan jumlar tuzish talab etiladi. Orfogramma tagiga chizib, uning nega shunday yozilayotganini o‘quvchilar tushuntirib beradilar. O‘qituvchi o‘quvchilar tuzgan gaplarning eng yaxshi namunalarini ta‘kidlab, boshqa o‘quvchilardan ham bu gaplarni yozishni talab etadi.

Ma‘lum gap tarkibidagi so‘zlarga bog‘lanib kelishi mumkin bo‘lgan so‘zlarni qo‘shib, gapni kengaytirish talab etiladi. Masalan: Polizlarda qovunlar pishib yotibdi - Polizlarda shirin-shakar, katta-katta qovunlar pishib yotibdi kabi...

Bu usul nutqni o‘stiradi, orfografik ko‘nikmani shakllantirishga yordam beradi. Ijodiy diktantdagi so‘zlar kamroq bo‘ladi, o‘quvchilar ijod qilib, matnni to‘ldiradilar. Bunda ham imlo, ham ijodiy tafakkur e‘tiborga olinadi.

2. Saylanma diktant. Bunda gap (matn) to‘liq yozilmaydi, balki so‘ralgan orfogrammaga tanlab olib yoziladi. Masalan: o‘qilgan gap tarkibida uchraydigan sifatlar yoziladi, ya‘ni saylab olinadi.

Saylanma diktant o'quvchilardagi bilim va mustaqillikni kuchaytiradi.

3. Lug'at diktant. Bu diktant turi mustahkamlash bosqichida 7-10 daqiqaga mo'ljallab o'tkaziladi.

Lug'at diktant ma'lum so'zlarning yozilishini va ma'nosini ham o'rgatadi, o'quvchilarning nutqini o'stiradi.

4. Nazorat diktanti. Bu diktant turi o'rganilgan qoidalarini o'quvchilar qanchalik o'zlashtirganini, bu qoidalarining qanchasini amalda qo'llay olishlarini nazorat qilish uchun o'tkaziladi. Bunday diktant katta mavzular o'tib bo'lingandan keyin va chorak oxirida o'tkaziladi.

Nazorat diktantini o'tkazish tartibi quyidagicha:

1. Matn tushunarli, ifodali tarzda o'qib beriladi.
 2. Keyin birinchi jumla qayta o'qib eshittiriladi.
 3. O'qituvchi yozish oson bo'lishi uchun birinchi gapni sintagmalarga bo'lib o'qib beradi, o'quvchilar yoza boshlaydilar.
 4. Gap tugaganligini anglatish uchun u qayta o'qiladi. Shu tariqa jumlama jumla o'qib beriladi.
 5. O'z-o'zini tekshirish imkoniyatini berish uchun matn yana to'la o'qib eshittiriladi.
- Imlosi qiyin yoki o'quvchiga notanish so'zlar quyi sinflarda xat-taxtaga yozib qo'yilishi ham mumkin.

Diktantni tekshirishda savodxonlikka, imloviy (orfografik, punktuatsion va uslubiy) xatolarga, husnixatga e'tibor beriladi. Xatolar turi va soni ko'rsatiladi. Diktant natijasi sinfda, albatta, ko'rib chiqilishi, xatolar ustida ishlanishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa o'quvchilarga yo'l qo'ygan xatolarini tuzatish imkoniyatini beradi va uni takrorlamaslikka o'rgatadi. Bunda o'qituvchi baho me'yorini yaxshi bilishi kerak bo'ladi.

O'qituvchi diktant yozdirishdan avval ularga diktant yozishga qanday tayyorgarlik ko'rish kerakligi xususida quyidagi eslatmalarni berishi kerak:

1. Matnni diqqat bilan tinglash. Undagi asosiy mazmunni anglab olishga harakat qilish.
 2. Gapning mazmuni va uning oxangi asosida unda qo'llash kerak bo'lgan tinish belgilari qo'yishni mo'ljallash.
 3. Matn ikkinchi marta o'qilayotganda imlosi qiyin so'zlarga diqqatni jalb qilish, ularning to'g'ri yozilgan shaklini topishga harakat qilish.
 4. Yozishga ulgurmay qolgan so'zlarga joy qoldirish.
- O'qituvchilar qaysi diktant turini qanday o'tkazish lozimligi haqidagi uslubiy yo'l-yo'riqlarni yaxshi bilish kerak. Buning uchun ular diktantlar to'plamlari, baho me'yori haqidagi metodik adabiyotlar bilan tanishib borishlari kerak.

Tekshirish savollari

1. Diktant va uning turlari, ularning ahamiyati.
2. Ijodiy diktant va uning turlari.
3. Saylanma diktant va uning ahamiyati.
4. Lug'at diktant va uni o'tkazish tartibi.
5. Nazorat diktantlari va ularga qo'yiladigan talablar.
6. Diktant yozishga o'quvchilarning tayyorgarligi.
7. Diktantlarni tekshirish, xatolarni tasnif qilish va baholash.
8. Diktant tahlili, xatolar ustida ishlash.

Tayanch tushunchalar

Diktant va uning turlari. Nazorat diktantlari. Ta'limiy diktantlar. Lug'at diktant. Saylanma va ijodiy (erkin) diktant. Xatolar tasnifi. Baho me'yori.

5-ma'ruza (2 soat)

BAYON VA UNING TURLARI. BAYON O'TKAZISH BOSQICHLARI. BAYONNI TEKSHIRISH, BAHOLASH VA TAHLIL QILISH

Reja

1. Bayon va uning ta'limiy, tarbiyaviy ahamiyati.
2. Bayon turlari.
3. Bayon yozishga tayyorgarlik ko'rish.
4. Bayon o'tkazish tartibi, tahlil qilish, baholash.

Adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G'. Punktuatsiya o'qitish metodikasi. -T.: O'qituvchi, 1968.
2. Turdiev B. Yozma nutqni o'stirish yuzasidan praktikum. -T.: O'qituvchi, 1980 (o'quv qo'llanma).
3. Nazarov K. O'zbek tili va adabiyotidan baho me'yori. T.: -O'qituvchi, 1990.
4. Nurmonov A, Yusupova Sh. Bayonlar to'plami. Andijon-1992.
5. Tog'ae'v T., Tavaldieva G., Akromova M. O'zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati. -T.: Sharq, 1999.


Bayon ijodiy xarakterdagi yozma ishlarning asosiy turlaridan biri bo'lib, o'quvchining matn mazmunini o'z so'zi bilan yozma ravishda qayta bayon etishdan iborat ijodiy ishidir.

Bayon bog'lanishli nutqni o'stirish vositasi bo'lib, o'quvchilarda o'z fikrini keng va xilma-xil ravishda bayon qilish qobiliyatini rivojlantirishga, nutq malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Bayon yozdirishda nutqni o'stirish bilan birga matnning g'oyaviy-siyosiy, tarbiyaviy tomoniga jiddiy ahamiyat beriladi. O'quvchilarning dunyoqarashini o'stiradigan, ularda insoniy fazilatlarni shakllantirishga, rivojlantirishga yordam beradigan, axloqi, ma'naviyatini tarbiyalashga qaratilgan matnlar to'planadi. Bayon uchun turli badiiy asarlar, publitsistik, ilmiy va ilmiy-ommabop materiallardan tanlab olinadi hamda uning mazmuni, tuzilishi (kompozitsiyasi), turli obrazli, tushunarli bo'lishi, o'quvchi bilim darajasiga mos bo'lishi, aktualligi hisobga olinadi.

Matn ham, rivoyat ham, tasvir ham dialog xarakterida bo'lishi mumkin. Eng qulayi hikoya bo'lib, matnning syujetli bo'lishi, epizodlari ko'p emasligi, xotirada oson qolishi hisobga olinadi.

B.Turdiev bayon turlarini quyidagicha tasnif qiladi:



Og‘zaki bayonning asosiy maqsadi matn mazmunini puxta o‘zlashtirish va og‘zaki nutqni hamda yozma nutqni o‘stirishga zamin tayyorlashdan iborat.

Yozma bayonning bir turi bo‘lgan nazorat (kontrol) bayon olingan bilim va malakalarni sinash maqsadida o‘tkaziladi. Ta’limiy bayonning asosiy maqsadi esa o‘quvchi-talabalarning matn ustida ko‘proq mustaqil ishlash malakasini rivojlantirish, lug‘at boyligini kengaytirish, matnning asosiy g‘oyasi va til xususiyatlarini tahlil qilish, bayon rejasini tuzishga o‘rgatish, savodxonlikni yaxshilash hamda stilistik ko‘nikmalarni takomillashtirish orqali yozma nutq madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilishdir.

Ta’limiy bayonni mashq qilish davomida talabalar zarur badiiy matnlar, darsliklar va lug‘atlardan foydalanadilar, reja tuzishni amaliy o‘rganadilar, natijada ularning bog‘lanishli yozma nutq tuzish malakalari o‘sib boradi. Bu esa nazorat bayonini muvaffaqiyatli yozishga olib keladi.

Таълимий баён турлари.

To‘liq va matnga yaqinlashtirilgan bayon.

Bunday bayon yozish jarayonida matn mazmuni qisqartirilmasdan to‘la, erkin bayon etiladi. Matnga yaqinlashtirilgan bayon deyilishga sabab shuki, bunda tanlagan badiiy asar qurilishidan, uslubidan foydalanib, nutq shakli idrok etiladi, matnning lug‘at boyligi o‘zlashtiriladi.

Qo‘shimcha (grammatik) topshiriqli bayon.

Nutq o‘stirishning asosiy vositalaridan biri bo‘lgan bu bayon turi badiiy matn misolida grammatik qoidani ongli o‘zlashtirish va olingan bilimni mustahkamlash hamda amaliyotga tatbiq etishga yordam beradi.

Matn asosida grammatik topshiriqlar turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan:

1. Matn mazmunidan foydalanib, darak, so‘roq, buyruq gaplar tuzib bayon yozish.
2. Sodda gaplarni qo‘shma gaplarga aylantirib bayon yozish.

3. Matndagi va boshqa mazmunga mos iboralardan foydalanib bayon yozish.

Qisqartirilgan bayon

Bu bayon turi to'liq bayonga nisbatan murakkabroq. Bunda matndagi eng muhim masalalar ikkinchi darajali masalalardan ajratib olinadi va badiiy asarning o'ziga xos xususiyati (koloriti) saqlangan holda asar syujeti qisqartirilib, umumlashtirilgan tarzda yoziladi.

Bu jihatdan u tafakkur va nutq o'stirishga ko'proq ta'sir qiladi. Ijodiy va faol fikr yuritishga undaydi.

Qisqartirilgan bayonda muallifning asosiy fikri, voqealarning mantiqi, izchilligi, qahramonlar xarakteriga jiddiy e'tibor beriladi. So'z va iboralar tanlash erkin bo'ladi. Bunday bayonning keng hajmli rivoyat xarakteridagi matn asosida o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Баён ёзишдан аввал асар ы=илиб, унинг мавзу ва \ояси ани=ланади, сынгра режа асосида тезис тайёрланиб, баён ёзилади.

Saylanma bayon. Saylanma bayonda matnning mazmuni to'liq bayon etilmay, balki berilgan mavzu yuzasidagina material saylab olinadi.

Matnni o'qish jarayonida mavzuga aloqador materiallarga alohida e'tibor berish talab etiladi.

Hajmi kengroq matn olinib, uni o'qish jarayonida mavzuga aloqador materiallarga ayrim belgilar qo'yish mumkin. Shu materiallar asosida murakkab reja tuziladi va sitatalar olinadi.

Bu bayon insho uchun asosiy manbalardan biridir. U ba'zan tematik bayon deb ham yuritiladi.

Ijodiy bayon. Ijodiy bayonda matn hajmi kengaytiriladi, matn mazmuniga munosabat bildiriladi, munozarali masalalar bo'yicha shaxsiy fikr-mulohazalar ham bayon etiladi.

Bayon yanada murakkablashtirilganda biror asar yuzasidan berilgan taqrizlar o'qilgach, asar haqidagi tanqidiy fikrlar va berilgan baho tahlil qilinadi. Munosabat bildiriladi. Bu ijodiy inshoga yaqinlashtirilgan bayon hisoblanadi.

O'qituvchi o'quvchilarga bayon yozdirishda didaktik printsipga asoslanadi va ma'lum sistema asosida ish olib boradi. Bunda o'qituvchi mavzuni ochishdagi izchillikka, o'quvchilarga tanish mavzudan notanishga, oddiydan murakkabga o'tish printsiplarini ko'zda tutadi.

Bayon yozdirishda o'qituvchi rejali va rejasiz yozish, shaxsini o'zgartirib bayon yozish, dialoglarni rivoyat-hikoyaga aylantirib yozish... kabi qator zarur maslahatlarni beradi.

O'qituvchi bayon yozdirganda matndagi so'zlar ma'nosiga ahamiyat berishi lozim. Matnda notanish so'zlar bo'lsa, uning ma'nosini o'quvchilarga tushuntirishi zarur. Bu esa yozuvda xatolar kelib chiqishining oldini oladi. Bayon matnlari o'tilgan, o'rganilgan grammatika va orfografiya qoidalariga mos bo'lishi kerak.

Bayonni tekshirish jarayonida orfografik, tinish belgilariga doir, uslubiy xatolar hisobga olinib, mazmuniga jiddiy e'tibor beriladi va imlosiga alohida, mazmuniga alohida baho qo'yiladi. Keyingi darsda xatolar ustida ishlanadi, bayonlar sifati izohlanadi.

Bayon yozdirishdan oldin o'quvchilarga quyidagi eslatmalar beriladi:

Bayon yozishga qanday tayyorgarlik ko'rish kerak?

1. Matnni diqqat bilan tinglash (o'qish).
2. Tushunarsiz so'zlarning ma'nosini aniqlash.
3. Matnning asosiy mazmunini aniqlab olish, matnni yoritish uchun muhim bo'lgan so'z birikmasi va gaplar topish.
4. Matnni qismlarga bo'lish va ularga sarlavha qo'yish.
5. Tinish belgilarining o'rni va vazifalarini belgilab olish.
6. Matnni yana bir bor o'qib chiqish.

Эслатмалардан кейин танланган матн икки марта ы=иб эшиттирилади (ёки бир марта ы=иб, матн мазмунини о'збекича =илиб бериш ҳам мумкин). Сынгра ҳамкорликда ёки муста=ил шолда режа тузилиб, баён ёзилади.

Tekshirish savollari

1. Bayon va uning turlari haqida gapiring.
2. Og'zaki va yozma bayon turlarini izohlang.

3. Ta'limiy va nazorat bayonlarining farqini ayting.
4. To'liq va matnga yaqinlashtirilgan bayon turini tushuntiring.
5. Qo'shimcha (grammatik) topshiriqli bayon qanday o'tkaziladi ?
6. Qisqartirilgan bayon turini tushuntiring.
7. Saylanma bayon o'tkazish tartibini ayting.
8. Ijodiy bayon o'tkazish va uning ahamiyati haqida gapiring.
9. Bayon yozishga qanday tayyorgarlik ko'rish kerak ?
10. Bayonni tekshirish va baholash xususida so'zlang.

Tayanch tushunchalar

Bayon va uning turlari. Ta'limiy bayon. Nazorat bayoni. To'liq va matnga yaqinlashtirilgan bayon. Qo'shimcha (grammatik) topshiriqli bayon. Qisqartirilgan bayon. Saylanma va ijodiy bayon. Bayonga tayyorgarlik. Bayonni tekshirish va baholash.

6-ma'ruza (2 soat)

INSHO VA UNING TURLARI. INSHOGA TAYYORGARLIK, UNI TEKSHIRISH, BAHOLASH VA TAHLIL QILISH

Reja

1. Insho va uning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Insho yozish uchun kerak bo'ladigan malakalar, o'quvchilarga beriladigan zarur maslahatlar.
3. Insho turlari.
4. Inshoning ahamiyati.

Adabiyotlar

1. Ismatov S. O'rta maktabning yuqori sinflarida insho. -T.: O'qituvchi, 1973.
2. Turdiev B. Yozma nutqni o'stirish yuzasidan praktikum. -T.: O'qituvchi, 1980 (o'quv qo'llanma).
3. Mualliflar guruhi. Maktabda o'zbek tili va adabiyoti o'qitishning forma va metodlarini takomillashtirish. - T.: O'zbekiston Respublikasi maorif ministrligi. 1989.
4. G'ulomov A. Ona tili o'qitishning metod va printsiplari, -T.: O'qituvchi, 1992 (metodik qo'llanma).
5. Nazarova S. O'zbek tili o'qitish metodikasi. -T.:O'qituvchi, 1992.
6. Tog'ae'v T., Tavalдиеva G., Akromova M. O'zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati. -T.: Sharq, 1999.
7. To'xli'ev B., Shamsieva M., Ziyadova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006.

Insho - o'quvchilar mustaqil ravishda yaratadigan ijodiy ishning oliy ko'rinishidir. Insho o'quvchining o'zligi demakdir. Uning tafakkuri, dunyoqarashi, narsa, voqea-hodisalarga munosabati, tarbiyalanganlik darajasi, mustaqil turmushga tayyorligini belgilovchi bosh me'yor ham inshodir. Boshqacha aytganda, insho bolaning qiyofasini aks ettiruvchi bir ko'zgudir.

O'quvchi ijodiy asar yaratish maydoniga ona tili fani orqali kiradi va bu asarning ilk sabog'ini ham u ona tili fanidan oladi. Ona tili fani o'quvchiga ijod qilish uchun zarur ozuqa beradi.

Insho o'quvchining ona tilidan egallagan bilimlarini o'zida mujassamlashtiradi. Til hodisalari insho orqali o'quvchining ijodiy – amaliy faoliyatiga ko'chadi.

Insho yozma nutqni rivojlantirishning eng asosiy vositalaridan hisoblanadi.

Insho bayondan farq qiladi. Bayonda o'zgalarning fikri, ya'ni tayyor material o'zlashtirilib, izchil ravishda qayta bayon etilsa, inshoda tanlangan mavzu yuzasidan yig'ilgan material asosida shaxsiy fikr-mulohazalar bildiriladi.

Inshoning xususiyatlaridan biri uning mavzu materialidir. Badiiy asarda obrazlar orqali berilgan muallif g'oyasi mavzu bilan uzviy bog'liq holda yoritiladi. Mavzu va g'oyani aniq belgilab olmasdan va zarur material, faktlar yig'may turib, inshoni muvaffaqiyatli yozish mumkin emas. Fakt-dalillarsiz insho mazmunsiz, quruq gapdan iborat bo'lib qoladi.

Insho tuzilishi jihatdan kirish so'zi bilan boshlanib, so'ngra mavzu, g'oya yoritiladi. Keyin esa xulosalanadi. Xullas, **mavzu, g'oya, material, faktlar, reja hamda xulosa inshoning asosiy nazariy vositalaridir.**


Insho yozish uchun o'quvchilarga zarur bo'ladigan malakalar:

1. Insho sarlavhasini to'g'ri belgilash. To'g'ri qo'yilgan sarlavha inshoning muvaffaqiyatli chiqishi uchun ilk qadamdir.
2. Mavzu talabini to'g'ri tanlash.
3. Inshoga material to'plash.
4. Kuzatuvchanlik xususiyatining to'la shakllangan bo'lishi.
5. To'plangan materiallarni tartibga solish va uni muayyan izchillikda bera olish.
6. Insho matnini takomillashtirish. Unda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish.

Insho yozish uchun o'quvchilarga zarur maslahatlar:

1. Insho mavzusini puxta o'ylash. Nimalar haqida yozishni aniqlab olish, mavzuga oid so'zlar tanlash.
2. Inshoning asosiy mazmunini, shu mazmunni yoritish uchun qanday yozishni o'ylab olish, inshoning rejasini tuzish.
3. Inshoni yozishda faqat mustaqil ijodiy fikr yuritish.
4. Yozilgan inshoni ko'rib chiqish, tekshirish, ortiqcha so'z va gaplarning ustidan chizish, mavzu va asosiy mazmuni etarli ochilmagan o'rinlarni to'ldirish.
5. Inshoning tiliga, fikr ifodasiga e'tibor berish, zarur o'rinlarga tuzatish kiritish.
6. Yozgan inshoni oqqa ko'chirish.

INSHO VA UNING TURLARI



Demak, insho turlari **pedagogik maqsadga ko'ra** bolalar inshosi shartli ravishda 3 guruhga ajratiladi: **1. Ta'limiy insholar.** **2. Nazorat qilishga qaratilgan insholar.** **3. Ko'rik-tanlov insholari.**

Ta'limiy insholar o'rgatishni ko'zlaydi. Til hodisalarini amalda qo'llashga o'rgatish, o'zbek adabiy tilining boy imkoniyatlaridan nutqda foydalanish kabi zarur malakalar deyarli ta'limiy insholar orqali shakllantiriladi. Bu insholarning qoralama va oqlama nusxalari bo'lmaydi. Ular mashq daftariga bir marta yoziladi.

Nazoratga qaratilgan insholarni, odatda, katta bo'limlar o'rganilgandan keyin yoki chorak oxirida, o'quv yili oxirida o'tkazish mumkin. Ular bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilish maqsadida o'tkaziladi. Shuning uchun insho mavzusi e'lon qilinmaydi, qoralama, oqlama nusxada yoziladi. Bunday insholarga 2 soat vaqt ajratiladi.

Ko'rik-tanlov uchun yozilgan insholar sinf yoki maktab g'oliblarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Mavzular oldindan e'lon qilinadi, tanlov shartlari aytiladi.

Insholar shakli jihatdan ikki xil: og'zaki va yozma. Ko'pincha rasm, ekskursiya, kinofilm, sahna asarlari haqidagi taassurotlar avval og'zaki, keyin yozma bayon qilinadi. Inshoning bu ikki turi o'rtasida mutanosiblik bo'lishi shart.

Ona tili mashg'ulotlarida qo'llaniladigan insholar ilmiy, badiiy, erkin mavzularga ajratilishi mumkin.

Ilmiy mavzudagi insholar: «Mahmud Koshg'ariy», A.Navoiyning «Muhokamatul-lug'atayn» asari; «Fonetikani o'rganishning ahamiyati», «So'z birikmasi va gap»

Adabiy insholar adabiy asarlar bo'yiga yoziladi. M: «Ma'nodosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlar» mavzusini o'tgandan keyin «Zumrad va Qimmat» ertagi asosida insho o'tkazish mumkin.

«O'tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» qissasini o'qib», «Tohir Malikning «Alvido, bolalik» qissasidan olgan taassurotlarim»... mavzularidagi insholar adabiy insholar jumlasidandir.

Erkin insholar - adabiy insholarga yaqin turuvchi yozma ish turi. Badiiy adabiyotdan yaxshi xabardor o'quvchi erkin inshoni qiynalmay yozadi. Adabiy insholar adabiy asarlarga asoslansa, erkin insholar hayotning turli sohasiga doir bo'lishi mumkin. U o'ziga xos kichik nasriy asar bo'lib, unda o'quvchining o'zligi namoyon bo'ladi.

Tasviriy insholar - turmushdagi narsalar, hayotdagi voqea-hodisalar, odamlar, jonli-jonsiz mavjudotning muhim belgilari, xususiyatlarini yoritishga mo'ljallangan insholar.

Tasvirning 3 ko'rinishi mavjud:

- a) oddiy tasvir;
- b) ilmiy tasvir (suv, quyosh, paxtalarning ilmiy tasviri);
- v) badiiy tasvir (muallif uchun muhim bo'lgan belgilargina ko'rsatiladi).

Ilmiy tasvirda narsalarning nomi, nima uchun qo'llanishi, uning nimadan tayyorlanganligi, qanday qismlardan iboratligi, shakli, hajmi, rangi kabilar ko'rsatiladi.

Tasviriy insho kichik badiiy, ijodiy asardir.

Rivoya – inshoda mazmunan bir-biriga bog'liq (syujetli) voqea-hodisalar haqida fikr yuritiladi. Shuning uchun rivoya-insho kichik hikoya deb ham yuritiladi. M.: «Men ko'rgan voqea», «Yong'in bartaraf etildi».

O'qituvchi yoki o'quvchilar o'rta tashlagan g'oya insho uchun asosiy material bo'ladi.

Rivoya-inshoning murakab ko'rinishi berilgan mavzu asosida hikoya yozishdir. Xalq maqollari va hikmatli so'zlar hikoya uchun yaxshi mavzu bo'la oladi. M.: «It qutursa, egasini qopar»....

Ertak - insho o'quvchilarning tasavvur olamini kengaytiradi. Ertak janrining o'ziga xos xususiyatlarini, voqeaning tuguni, rivojlangan nuqtasi, echimining qanday bo'lishini bilgan bola ertak -inshoni yoza oladi.

Muhokama insho qiyoslash, baho berish, o'z fikrini himoya qilish, o'zining haqligini isbot qilishni talab etib, 3 tarkibiy qismdan iborat bo'ladi:

- a) o'rta tashlanayotgan asosiy fikrlar (kirish);
- b) fikrlardan to'g'risini dalillar bilan asoslash;
- v) xulosa chiqarish (xotima)

Bunday insho induktiv (avval dalil-isbot, keyin umumiy xulosa chiqarish) va deduktiv (umumiy xulosadan xususiyligga, umumiyning bo'laklarini isbotlashga o'tish) usullari asosida yoziladi. M.: «Bog'dorchilik-men sevgan kasb» (induktiv usulida yozilgan insho)

Muhokama insholar orasida tavsif va taqriz insholar ham asosiy o'rin egallaydi.

Tavsif insho o'quvchidan o'qigan badiiy asar, ko'rilgan kinofilm qahramonlari haqida shaxsiy fikr-mulohazalarini bayon etishni talab etadi.

Muhokama insholardan yana biri munozarali masalalarga bag'ishlangan «Sarvar va Mahmud haqiqiy do'stmi?» «Nazira haqmi?» tarzidagi insholardir. Unda munosabat bildirilib, shaxsiy fikr asoslaniladi.

Taqriz inshoda badiiy asar, sahna asari yoki kinofilmga taqriz yoziladi va turli maqsad hamda vazifalarni ko'zlaydi.

Muhokama insho ko'rinishlaridan yana biri **adabiy-badiiy maqolalar tayyorlash**dir. Unda muammolar ko'tarilishi, masalalarga munosabat bildirilishi mumkin.

Demak, insho o'quvchining aqliy faoliyatini charxlaydi, yaxshi bilan yomonning mohiyatini chuqur anglashga, o'z fikr-qarashlarini qattiq turib himoya qilishga, ijodiy fikrlash qobiliyati, dunyoqarashining rivojlanishiga, adabiy til me'yorlarini nutqiy sharoitlarda to'g'ri qo'llay olishga, savodxonlik darajasining oshishiga xizmat qiladi.

O'quvchilarga insho yozishga tayyorgarlik xususida eslatmalar:

1. Avvalo, insho uchun mavzu tanlang. Shuni esda tutingki, mavzuga sarlavha tanlash muhim ahamiyatga ega. Inshoda nimalar haqida fikr yuritishingizni aniqlab oling.

2. Inshoning rejasini tuzing. Uning asosiy mazmunni aks ettirishi, insho mavzusi yuzasidan yoritmoqchi bo'lgan fikrlaringizga to'g'ri kelishi haqida o'ylang. Mavzuni yoritish uchun qanday shakl, qanday uslubni qo'llashingizni belgilab oling.

3. Mavzuni yoritish va bayon qilish uchun zarur ma'lumotlarni, ko'chirmalarni tanlang.

4. Inshoning qoralamasi tayyor bo'lgandan keyin uni o'qib chiqing: unda mavzu etarli yoritilganmi? Rejada ko'rsatilgan bo'limlar to'liq yoritilmagan bo'lsa, ularni to'ldiring. Bunda mavzu (sarlavha) bilan insho mazmunining mos kelishiga ahamiyat bering.

5. Inshoning tili (bayon uslubi)ga e'tibor bering. Sizning fikr- mulohazalaringiz qay tarzda ifodalangan: tilda badiiylilik, ta'sirchanlik, ixchamlik va jozibadorlikka erishdingizmi? Yozilishi qiyin so'zlarni «Imlo lug'ati» asosida tekshirib chiqing. Zarur o'rinlarga tuzatishlar kiriting va inshoni oqqa ko'chiring.

Tekshirish savollari

1. Insho va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.
2. Insho yozish uchun qanday zaruriy malakalar kerak bo'ladi?
3. O'quvchilarga insho yozish uchun kerak bo'ladigan zarur maslahatlar to'g'risida so'zlang.
4. Inshoning qanday turlari bor ?
5. Pedagogik maqsadga ko'ra insho turlarini ayting.
6. Ta'limiy, nazorat qilishga qaratilgan va ko'rik-tanlov insholarining farqlarini tushuntiring.
7. Insholar shakli jihatdan qanday turlarga bo'linadi ?
8. Mavzusiga ko'ra insho turlarini izohlang.
9. Ona tili mashg'ulotlarida qo'llaniladigan insho turlari qaysilar?
10. Ilmiy, badiiy, erkin mavzudagi insholar haqida ma'lumot bering.
11. Ishlash usuliga ko'ra insho turlari qanday ?
12. Tasviriyl, rivoya, ertak va muhokama insholarni izohlang.

Tayanch tushunchalar

Insho va uning turlari. Ilmiy, badiiy va erkin mavzudagi insholar. Boshqa insho turlari. Tasviriy insholar. Rivoya-insholar. Muhokama insholar (tavsif insho, taqriz insho). Tekshirish va baholash.

7-ma'ruza (2 soat)
O'ZBEK TILIDA ISH YURITISH. ISH QOG'OZLARINING IJTIMOY
HAYOTDAGI O'RNI, AHAMIYATI VA TURLARI

Reja

1. Nutq uslublari. Rasmiy nutq uslubi.
2. Ish qog'ozlari va ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati.
3. Ish qog'ozlarining turlari (tarjimai hol, ariza, e'lon, tavsifnoma, dalolatnoma, taklifnoma, bildirishnoma, majlis bayoni, tilxat, ishonchnoma, ma'lumotnoma, hisobot).
4. Ish qog'ozlariga qo'yiladigan talablar va ularni o'quvchilarga tushuntirish.

Adabiyotlar

1. Turdiev B. Yozma nutqni o'stirish yuzasidan praktikum. -T.: O'qituvchi, 1980. (o'quv qo'llanma).
2. Mahmudov N. O'zbek tilida ish yuritish. T.: 2004.

Til mavjud ekan, bir-biridan farqlanuvchi nutq ko'rinishlariga ega. Nutq uslublari til taraqqiyotining muayyan davrlarida paydo bo'lib, til taraqqiy etishi bilan o'sib boradi. O'zbek tilining rasmiy yozma hujjatlar uslubi juda qadimiy tarixga ega. Qadimgi davlatlar va xonliklarning qonunlari, amr va farmonlari, yorliqlari, har xil arznomalari, rasmiy xatlar, nomalar va boshqa turli hujjatlar o'sha davr yozma nutqining dastlabki namunalaridandir. Yozma nutqning xizmatga doir bu turini – davlat qonunlari, aktlar, xalqaro hujjatlar va boshqa turli xil rasmiy yozishmalar uslubi deb yuritiladi.

Ijtimoiy hayotda ish qog'ozlarining o'rni va ahamiyati juda katta. Har bir mutaxassis qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'i nazar, ishlab chiqarishda mustaqil faoliyat boshlar ekan, albatta, ish qog'ozlariga duch keladi, ularni to'lg'azish borasida zarur bilim, malaka kerakligini sezadi. Buni jamiyat taraqqiyoti talab etadi.

Ish qog'ozlarini bilish, amalda qo'llash uni ro'yobga chiqarish vositalari demakdir.

Rasmiy ish qog'ozlarida dialektal va emotsional so'zlar ishlatilmaydi, balki ko'proq rasmiy so'zlar qo'llaniladi.

Hujjatlar xilma-xil va miqdoran juda ko'p. Ularning maqsadi, yo'nalishi, hajmi, shakli va boshqa qator sifatleri ham turlichadir. Shunday ekan, hujjatlar tiliga qo'yiladigan umumiy talablar bilan bir qatorda har bir turkum hujjatlar oldiga qo'yiladigan ko'pgina lisoniy talablar ham mavjud. Muayyan turdagi hujjat, albatta, o'ziga xos xususiyat va sifatlar bilan belgilanadi.

Hujjatlar matniga qo'yiladigan **asosiy talablardan biri xolislikdir**. Axborot xolis aks ettirilib, ularda kichraytirish-erkalash qo'shimchalarini olgan so'zlar, ifoda vositalari ishlatilmaydi.

Ikkinchi talab: aniqlik, ixchamlilik, lo'ndalik, mazmuniy to'liqlik.

Hujjatlar tilida ot turkumiga oid soʻzlar, harakat nomi, majhul nisbat, uchinchi shaxs buyruq-istak maylidagi yoki oʻtgan zamondagi feʼl shakllarining qoʻllanish darajasi yuqori boʻladi.

Ularda uzun jumlar, murakkablashgan, uyushiq boʻlakli gaplar koʻp qoʻllaniladi, odatdagi soʻz tartibiga qatʼiy rioya qilinadi (inversiyaga yoʻl qoʻyilmaydi).

Soʻroq, undov gaplar deyarli qoʻllanilmaydi. Asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi.

Hujjatlarda tilning ikki vazifasi-xabar berish (informativ) va buyurish (valyutativ)vazifalari amalga oshiriladi.

Hujjatlar matni birinchi, ikkinchi yoki uchinchi shaxs tilidan yoziladi. Matnni tuzishda turgʻunlashgan, qatʼylashgan soʻz birikmalaridan koʻproq foydalanish lozim. Chunki qatʼylashgan, yagona, doimiy shaklga ega boʻlgan soʻz tizimlari, iboralar 8-10 marta tez idrok qilinadi, vaqtni tejaydi (...maosh bilan...lavozimiga tayinlansin, ...boshqa ishga oʻtganligi munosabati bilan... lavozimidan boʻshatilsin...)

Hujjatlar yaratilish oʻrniga koʻra ikki xil:

1. **Ichki** hujjatlar: muassasalarning oʻzida tuzilgan va shu erda foydalaniladigan hujjatlar.

2. **Tashqi** hujjatlar: muayyan muassasaga boshqa tashkilot yoki ayrim shaxslardan keladigan hujjatlar.

Hujjatlar mazmuniga koʻra ikki xil:

1. **Sodda** hujjat muayyan bir masalani oʻz ichiga oladi.

2. **Murakkab** hujjat-ikki yoki undan ortiq masalani oʻz ichiga oladi.

Hujjatlar tegishlilik jihatiga koʻra ikki xil:

1. Xizmat yoki rasmiy (muassasa yoki mansabdor shaxsga tegishli)

2. Shaxsiy

Shaxsiy hujjatlar: ariza, shikoyat.

Maʼmuriy – boshqaruv faoliyatida xizmat mavqeiga koʻra:

1. **Tashkiliy** hujjatlar (nizomlar, yoʻriqnomalar, majlis bayonnomalari. shartnoma)

2. **Farmoyish** hujjatlar (buyruq, koʻrsatma, farmoyish)

Maʼlumotsimon-axborot hujjatlari (dalolatnoma, tavsifnoma)

1. Maʼlumotnoma, ariza, tushuntirish xati, hisobot, ishonchnoma.

4. **Xizmat** yozishmalarida muassasa faoliyatining turli masalalari bilan bogʻliq talab, iltimos, taklif, kafolat kabilar aks ettiriladi. Bu maʼnoda xizmat yozishmalari hujjatlarning yuqorida koʻrsatilgan har uch guruhi bilan aloqador.

Tashkiliy-farmoyish hujjatchiligi, yaʼni tashkiliy, farmoyish, maʼlumotnoma-axborot hujjatlari va xizmat yozishmalari zaruriy qismlar, yaʼni rekvizitlarni oʻz ichiga oladi.

Eng koʻp qoʻllaniladigan hujjatlar:

Ariza – biror bir tashkilotga yoki mansabdor shaxsga iltimos, shikoyat va taklif bildirib yoziladigan rasmiy hujjat.

1. Zaruriy qismlari:

2. Ariza taqdim etilayotgan tashkilot nomi va boshliqning ismi-sharifi.

3. Ariza yozuvchining turar joyi, vazifasi, ismi-sharifi.

4. Hujjat nomi.

5. Asosiy matn (taklif, iltimos, shikoyat).

6. Arizaga ilova qilinadigan hujjatlar nomi.

7. Ariza yozuvchining imzosi, ismi sharifi.

8. Ariza yozilgan vaqt (yil, kun, oy).

Bildirishnoma – tashkilot rahbariga xizmat faoliyatiga aloqador muhim masalalar yuzasidan yoki xabar berish zarurati tufayli taqdim etiladigan hujjat.

Bildirishnomalar kimga yoʻnalganligiga koʻra :

1. Ichki bildirishnoma (oʻz muassasa rahbariga yoziladi).

2. Tashqi bildirishnoma (tashkilot rahbarining yuqori idoraga yozgan bildirishnomasi).

Bildirishnomalar mazmuniga ko'ra:

Tashabbus bildirishnomalari

1. Axborot bildirishnomalari
 2. Hisobot bildirishnomasi
 3. Bildirishnomaning zaruriy qismlari:
 4. Bildirishnoma yo'llangan rahbarning lavozimi, ismi sharifi (jo'nalish kelishigida).
 5. Bildirishnoma tayyorlagan shaxsning lavozimi, ismi sharifi.
 6. Hujjat turi.
 7. Matn sarlavhasi.
 8. Bildirishnoma matni (mazmuni).
 9. Qancha varaqligi ko'rsatilgan ilovalar ro'yxati (agar bo'lsa).
 10. Bildirishnoma tayyorlagan shaxsning imzosi (agar ko'p bo'lsa hammasining imzosi).
- Hujjat taqdim etilgan sana (imzolanayotgan paytda qo'yiladi).

Tavsifnoma - ma'lum bir shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyati, shuningdek, uning o'ziga xos xislat va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjat. U bir qancha maqsadlarda (chet mamlakatda ishlash (... ketishda), lavozimga tayinlash...da) beriladi.

Tavsifnomada jamoatchilik va xizmat faoliyati, uning ishchanligi va axloqiy sifatleri ham ko'rsatib o'tiladi.

Zaruriy qismlari:

1. Tavsiflanayotgan shaxs haqida asosiy ma'lumotlar: a) ismi, otasining ismi, familiyasi; b) tug'ilgan yili; v) millati; g) partiyaviyligi; d) ma'lumoti; e) lavozimi; yo) ilmiy darajasi va unvoni (mavjud bo'lsa).

2. Hujjat nomi (Tavsifnoma).

3. Matn.

4. Imzolar.

5. Sana.

6. Muhr.

Matnni uchta mantiqiy bog'langan tarkibiy qismga ajratib ko'rsatish mumkin: 1-qismda shaxsning mehnat faoliyati, ya'ni uning mutaxassisligi, shu tashkilotda qaysi muddatdan buyon ishlayotganligi, xizmat vazifasidagi o'zgarishlar...haqida ma'lumot beriladi.

2-qismda uning shaxsiy tavsifi, ya'ni ishga munosabati, mutaxassislik bo'yicha mahorati, siyosiy va iqtisodiy bilimlarini oshirishi, jamoat ishlaridagi ishtiroki, oilaviy ahvoli, xulq-atvori, hatto ba'zida siyrati, ishdagi o'rtoqlariga munosabati, mukofotlanganligi (rag'batlantirishlar), berilgan ma'muriy jazolar qayd etiladi.

3-qismda esa bayon qilinganlardan xulosa chiqariladi va tavsifnoma qanday maqsadda yoki nima uchun berilayotganligi ko'rsatiladi.

Matn III shaxs tilidan bayon qilinadi. Unga uch shaxs: tashkilot boshlig'i, partiya tashkilotining kotibi, kasaba uyushmasi tashkilotining raisi imzo chekadi va ular imzosi yumaloq muhr bilan tasdiqlanadi.

Ish qog'ozlarining tilxat, tushuntirish xati, bayonnoma, e'lon, taklifnoma, telegramma, hisobot, xizmat xatlari, buyruq, ma'lumotnoma, tarjimai hol... kabi turlari keng qo'llaniladi.

Ona tili darslarida o'quv dasturida belgilangan tarzda ish qog'ozlarining turlari o'rgatib boriladi va ularga namunalar yozdiriladi.

Tekshirish savollari

1. Qanday nutq uslublari mavjud ?
2. Rasmiy nutq uslubi va uning o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.
3. Ish qog'ozlari va ularning turlarini ayting.
4. Ish qog'ozlari yaratilish o'rniga va mazmuniga ko'ra qanday turlarga bo'linadi ?
5. Hujjatlarning tegishlilik jihatiga ko'ra turlarini tushuntiring.
6. Ma'muriy-boshqaruv faoliyatida xizmat mavqeiga ko'ra hujjat turlarini ayting.
7. Hujjatlar matniga qo'yiladigan talablarni izohlang.
8. Hujjatlar tili va yozilish uslubi haqida gapiring.

9. Ariza yozish tartibini ayting.
10. Tavsifnoma qachon va qanday yoziladi?
11. Bildirishnoma yozish tartibi qanday ?
12. Hisobot nima maqsadda va qanday yoziladi ?

Tayanch tushunchalar

Ish qog'ozlari va ularning turlari, ahamiyati. Eng ko'p qo'llaniladigan ish qog'ozlari. Tushuntirish xati, ariza, bayonnoma, tarjimai hol, e'lon, tilxat. Ularning yozilish tartibi va uni o'quvchilarga singdirish.

8-9- maruza (4 soat)

YOZMA NUTQNI SHAKLLANTIRISHDA TINISH BELGILARINING AHAMIYATI. O'ZBEK TILIDA TINISH BELGILARI VA ULARNING QO'LLANISHI

Raja

1. Punktatsiyaning maqsadi va nazariy asoslari.
2. Punktatsiya o'rgatish metodikasi.
3. Punktatsiya o'rgatishning dastlabki davri.
4. Punktatsiyani sintaksisga bog'lab o'rgatish.

Adabiyotlar

1. Abdurahmonov G'. Punktatsiyadan tablitsalar. T.: O'qituvchi, 1960.
2. Lomizov A.F. Metodika punktatsii v svyazo' s izucheniem sintaksisa. M.: Prosvehenie, 1964.
3. Abdurahmonov G'. Punktatsiya o'qitish metodikasi. –T.: O'qituvchi, 1968.
4. Nazarov K. O'zbek tili punktatsiyasi. T.: O'qituvchi, 1976.
5. Azizxo'jaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006.

Punktatsiya tinish belgilarini yozuvda to'g'ri qo'llash qoidalarini belgilab beruvchi soha, ya'ni tinish belgilari haqidagi fandir. U matndagi gaplarning urg'usini topishga, so'zlarni gap mazmuniga mos ohangda, to'g'ri va aniq talaffuz qilishga yordam beradi. Shu bois, punktatsion qoidalar sintaksisga bog'lab o'rganiladi.

Tinish belgilari tildagi turli-tuman ma'nolarni ifodalashda, turlicha intonatsiyani yozuvda ko'rsatishda xizmat qiladi. Tinish belgilari gap bo'laklari va gaplar orasidagi semantik va sintaktik munosabatlarni belgilashda, ularni qanday intonatsiya bilan o'qish zarurligini ko'rsatishda katta rol o'ynaydi.

Umuman, tinish belgilari fikrni ifodalashda, o'zgalarga anglatishda, tushunishda, tushuntirishda yordamchi, ammo zaruriy vositadir. Yozuvda gapning ma'nosi, intonatsiyasi mazkur gapda qanday ishora qo'yilganiga qarab belgilanadi.

Punktatsiya (lotincha punktum-nuqta) ning ma'nosi nuqtalar ilmi demakdir, ushbu atama uch ma'noda qo'llaniladi: a) tinish belgilari tizimi va qo'llanish qonun-qoidalarini o'rganuvchi bo'lim; b) punktatsion qonun-qoidalar – me'yorlar yig'indisi, to'plami; v) tinish belgilari v.h.

Tinish belgilari fikrni aniq va tez uqib olishga hamda o'zgalarga uqtirishga yordam beradi.

Hozirgi tinish belgilarini qo'llash asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. Bu davrga qadar bo'lgan qo'lyozmalarda (ma'lumki, ular arab grafikasida yozilgan) hozirgidek mazmun va shakldagi tinish belgilari qo'llangan emas. Ammo bu qo'lyozmalarda tugal fikrni yoki uning ayrim qismlarini bo'laklarga ajratuvchi maxsus ishoralar ishlatilgan (Bu haqda H.G'ozievning «O'zbek punktuatsiyasi tarixi» kitobida berilgan).

Tinish belgilarining qo'llanishi masalasi eng murakkab masalalardan biridir. Har bir tinish belgisining qo'llanish o'rnini ma'lum bir semantik va grammatik funktsiyaga ko'ra bo'ladi. Tinish belgilari ma'lum grammatik, logik, intonatsiya xususiyatlarga asoslanadi, shu xususiyatlar asosida qo'llanadi.

Shuning uchun ham bu belgilarni o'z o'rnida ishlatmaslik ifodalanmoqchi bo'lgan fikrni qorong'ilashtiradi. uning tez va to'g'ri tushunilishiga xalaqit beradi yoki noto'g'ri tushunilishiga sabab bo'ladi. Mavjud asarlarda tinish belgilarini ishlatishda ko'p xatolar uchraydi. Bunday xatolar asosan ajratilgan bo'laklar. undalma va kirish so'zlar, sodda va qo'shma gapning turli ko'rinishlarida tinish belgilarini ishlatishda uchraydi. Sintaksisni nazariy va amaliy jihatdan puxta bilmay turib, tinish belgilarini to'g'ri qo'llay olish malakasini hosil qilish mumkin emas.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida tinish belgilari quyidagilardan iborat: nuqta (.), so'roq belgisi (?), undov belgisi (!), ko'p nuqta (...), qavs (), qo'shtirnoq («»), vergul (,), nuqtali vergul (;), ikki nuqta (:), tire (-).

Tinish belgilarining vazifasiga ko'ra turlari. Tinish belgilari vazifasiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Gaplarni va ularning qismlarini ajratib, bo'lib ko'rsatuvchi belgilar (vergul, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul).

2. Ma'lum fikrni xarakterlovchi, izohlovchi belgilar (nuqta, so'roq belgisi, undov belgisi, qavs, qo'shtirnoq).

Birinchi xil belgilar gap yoki gap bo'laklarining o'zaro semantik va grammatik munosabatini ko'rsatadi. Ikkinchi xil belgilar ifodalanayotgan fikrga qo'shimcha ma'no (darak, so'roq ma'nosi, o'zganing nutqi ekani v.b.) beradi; Shu bilan birga, tinish belgilari ma'lum gap yoki uning bo'laklariga qo'shimcha ma'no beradi. Bu hol tinish belgilarining o'rnini ham belgilaydi: birinchi tur belgilar gap o'rtasida, ikkinchilari esa gap oxirida ishlatiladi. Tinish belgilarining bu xususiyatlari og'zaki nutqda ma'lum intonatsiyada (ohangning ko'tarilishi, pasayishi, tempning tezlanishi, sekinlashishi, pauza v.b.) ko'rinadi.

Punktuatsiyaning intonatsiya, grammatik qurilish va mazmunga munosabati. Ma'lumki, nutqimizdagi har bir gap, har bir so'z birikmasi va har bir so'z o'ziga xos intonatsiya bilan bayon etiladi. Bu hol yozuvda biror belgi orqali ifodalashni talab etadi. Masalan, pauza vergul orqali, hayajon undov belgisi orqali, intonatsion tugallik nuqta, so'roq belgisi orqali ifodalanadi.

Punktuatsiyaning o'rgatish metodikasi

Umumiy metodik ko'rsatmalar. Maktabda tinish belgilari bo'yicha mashg'ulotlar sintaksis bilan qo'shib olib boriladi. Sintaksis bahsidan ma'lum mavzu o'tilar ekan, shu mavzuga oid punktuatsion qoidalar haqida ma'lumot beriladi. Bu jihatdan ko'p tinish belgilarining qoidasi sintaksisdan o'tiladigan ma'lum grammatik qoidalar asosida izohlanadi. Masalan, vergulni ishlatishning butun o'rinlari, ikki nuqta va tireni ishlatishning ayrim o'rinlarini izohlashda gapning sintaktik qurilishini hisobga olish, unga asoslanish zarur. O'quvchi sintaktik qoidalarni qanchalik yaxshi tushunsa, gapni qanchalik to'g'ri sintaktik tahlil qila olsa, tinish belgilarini shunchalik puxta o'rgangan bo'ladi, chunki punktuatsion malakalar sintaktik konstruksiyalarni ongli tushunishdan hosil bo'ladi. Ammo ko'pchilik tinish belgilarining qo'llanishini o'rganishda gapning grammatik qurilishini hisobga olish bilan barobar, o'quvchining diqqatini gapning mazmuniga qaratish ham zarur, chunki bu belgilar gap mazmuni bilan ko'proq aloqadordir.

Har bir tinish belgisining ishlatilishini izohlashda sintaksisga oid asosiy qoida tushuntirilib, bu qoidani o'z o'rnida tinish belgisi bilan bog'lashga, so'ng sintaktik qoidaning eslatmasi

izohlanib, tinish belgilarining shu o'rinda qo'llanishidagi variantlar ko'rsatilishiga, ma'lum qoidaga eng avvalo aniq, ravshan, shubhasiz misollar keltirilishiga e'tibor qilish zarur. Bunda: a) sodda qoidalaridan murakkab qoidalariga qarab borish zarurligini; b) tushuntirilayotgan qoidalarni avvalo izohlangan va o'xshash qoidalar bilan taqqoslashni unutmaslik zarur.

Пунктуация =oidalarini tushuntirishning eng unumli йили **induktsiya metodidir**. Bunda misollarni tahlil qilish yo'li bilan ma'lum punktuatsion qoida keltirib chiqariladi. Bundan tashqari, punktuatsion belgining xarakteri va o'quvchilarning saviyasiga ko'ra o'qituvchi ma'lum punktuatsion qoidalarni o'zi tushuntirib berishi, nima sababdan u yoki bu belgining ishlatilishini izohlashi mumkin..

Puntuatsion qoidalarni o'quvchilarga singdirishdagi metodlardan yana biri **kuzatish metodi** hisoblanadi. Bunda o'quvchilar berilgan misollarni kuzatish, bir-biriga taqqoslash orqali ma'lum xulosa va qoidalar chiqaradilar (masalan, o'qituvchi doskaga uyushiq bo'lakli va kirish so'zli gap yozadi. O'quvchilar bu ikki xil gapni solishtirish orqali ularning biri uyushiq bo'lakli gap, ikkinchisi esa kirish so'zli gap ekanligini aniqlab, uyushiq bo'laklar bir tomondan, kirish so'zlar esa har ikki tomondan vergul bilan ajratilishi haqida xulosaga keladilar). Bu o'rinda o'quvchilar faktlarni noto'g'ri tahlil etib, noto'g'ri xulosaga kelmasliklari uchun, o'qituvchi nazorat qilib, boshqarib turadi.

Tinish belgilarini to'g'ri qo'llashga o'rgatishda u yoki bu metodning tanlab olinishi shu tinish belgisining xarakteriga, u bilan bog'liq bo'lgan sintaktik qoidaning mazmuniga bog'liqdir. Ayrim o'rinda induktiv metod yaxshi natija bersa, boshqa bir o'rinda deduktiv metod yaxshi natija beradi, ba'zan esa har ikki metodni qo'llash, analiz va sintezni birgalikda olib borishga to'g'ri keladi. Puntuatsion qoidalar juda sodda, qisqa bo'lib, ularni quruq yodlatishning foydasi kam bo'ladi. Bundan tashqari, har bir punktuatsion qoidaning bir nechalab eslatmasi ham bo'ladi. Shuning uchun biror punktuatsion qoidani o'quvchilarga singdirishda butun sinfnining diqqatini bir nuqtaga to'plab, har bir o'quvchining ma'lum mavzu, qoida ustida mustaqil mulohaza yuritishlariga erishmoq zarur. Har bir yangi punktuatsion qoida va uni mustahkamlash uchun olib boriladigan mashq oldin tanishib o'tilgan punktuatsion qoidalar bilan qo'shib, bog'lab olib borilishi zarur.

Puntuatsion qoidalarni tushuntirish va o'quvchilarga singdirishda turli sxemalar, tablitsalardan foydalanishning alohida ahamiyati bor. Bu sxemalar punktuatsion qoidalarni, ularning variantlarini yaqqol ko'rish, tasavvur etish va bir-biriga chog'ishtirishga yordam beradi. Insho yoki diktant o'tkazayotganda, sxemalar olib qo'yiladi. Bu bilan o'quvchi ma'lum matndagi tinish belgilari ustida mustaqil mulohaza qilishga o'rganadi.

O'qituvchi tez-tez punktuatsion diktantlar o'tkazib turishi, yo'l qo'yilgan xatolarni tasnif qilib chiqishi, asosan diqqatni ana shu xatolarning tugatilishiga qaratishi lozim. Diktant materiallari ayrim-ayrim tanlangan jumladan ham, mazmunan bog'langan matnlardan ham bo'lishi mumkin. Diktant o'tkazish uchun o'qituvchi materialni tekshirilishi, qaytarilishi lozim bo'lgan bo'limning xarakteriga qarab tanlab oladi: agar ma'lum bir punktuatsion qoidani qaytarish lozim topilsa, shu qoidaga mos jumlar tanlanadi; agar turli punktuatsion qoidalarni qaytarish zarur bo'lsa, mazmunan bog'langan matn olinishi maqsadga muvofiqdir. Shuni hisobga olish kerakki, tanlangan matn faqat prozadan bo'lib qolmay, she'riyatdan, dramaturgiyadan ham olinishi zarur.

Tinish belgilarini to'g'ri ishlata bilish malakalari faqat turli punktuatsion mashqlar orqali hosil bo'ladi. Shuning uchun amaliy mashg'ulotlarga alohida ahamiyat berish, turli-tuman mashq turlarini o'tkazib turish zarur. Tinish belgilariga doir mashg'ulotlarining ko'p va xilma-xil bo'lishi sintaktik qoidalarni o'zlashtirishga hech vaqt salbiy ta'sir qilmaydi, aksincha, bu narsa sintaktis qoidalarining o'quvchilar ongiga yanada mustahkamroq o'rnatilishiga, ular nutqining o'sishiga yordam beradi.

Tinish belgilariga doir ko'p tahlillar sintaktik tahlil bilan qo'shib olib boriladi. Sintaktik qoidalarni qaytarish yoki o'quvchilarning qanchalik o'zlashtirganliklarini sinash maqsadida ma'lum punktuatsion mashqlarni to'la ravishda sintaktik tahlilga bo'ysundirish mumkin. Masalan, uyushiq bo'laklardagi umumlashtiruvchi so'zlarda tinish belgilarining ishlatilishiga

doir mashq o'tkazilar ekan, bu umumlashtiruvchi so'zning so'rog'i, vazifasi, qanday so'z turkumi orqali ifodalanganligi bilan bog'lab olib boriladi.

O'qituvchi mashq namunasini ishlab beradi va o'quvchilar mustaqil bajargan ishdagi turli variantlar butun o'quvchilarning muhokamasiga tashlanadi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning mulohazasini ma'lum tomonga yo'naltirib borishi hamda ish oxirida xulosalashi lozim.

Tinish belgilarini to'g'ri ishlata bilishga o'quvchilarni o'rgatish sintaktik qoidalarini ular ongiga singdirish va nutq o'stirish bilan chambarchas bog'lanadi. Shuning uchun ham tinish belgilariga doir mashqlar sintaktis qoidalarini o'zlashtirishga ham, adabiyot darsiga ham katta foyda keltiradi.

Punktuatsion malaka hosil qilishda adabiy o'qish va adabiyot darslarining ham roli katta. Nutq o'stirish masalalarining punktuatsiya bilan bog'lanishi yaxshi natijalar beradi. Ma'lum matnni ifodali o'qish uning punktuatsiyasini to'g'ri tushunish asosidagina mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, insho yozdirishda va til-adabiyot to'garaklarida, qo'shimcha darslarda, adabiy kechalar va ilmiy konferentsiyalarda o'qituvchi punktuatsiya masalalariga ahamiyat berib borishi zarur.

Ma'lumki, har bir metodik masala nazariy tekshirish, tajribalarni umumlashtirish va yangi metodlarni sinab ko'rish orqali yuzaga keladi. Shuning uchun ham bir xil ish metodi bilan chegaralanmaslik, grammatik ma'lumot va punktuatsion qoidalarini o'quvchilarga tez, puxta va mukammal singdirishda yangi metodlarni topish, bu metodlarni sinab ko'rish o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi kerak.

Ma'lumki, har bir sintaktik qoida yoki har bir tinish belgisining qo'llanish qoidasi bir-biri bilan bog'langan bir necha qoidalardan iborat bo'ladi (masalan, ko'chirma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi kabi). Bunda har bir qoida ustida alohida mashqlar o'tkazish zarur. O'quvchi qoidaning bir bandini tushunganiga qanoat hosil qilingach, qoidaning ikkinchi bandiga o'tiladi, qoidaning ikkinchi bandi birinchi banddagi qoida bilan qiyoslanadi, bog'lanadi va zarur xulosalar chiqariladi. Tinish belgilarining ishlatilishi tushuntirilgan ekan, har bir qoidaga misol tanlash, mashqlar uchun bir-biri bilan bog'langan yoki bog'lanmagan matnlar tuzishning katta ahamiyati bor. Tahlil uchun tanlangan matnlar o'tilgan va o'tilayotgan punktuatsion qoidalarini o'z ichiga olishi kerak. Har bir punktuatsion qoidaga avvalo yorqin misollar berilib, keyin butun mashg'ulot bog'langan matnlarga qaratiladi. Bunday matnlar tinish belgilariga boy bo'lishi-o'tilgan punktuatsion qoidalarini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak. Shu bilan birga, tinish belgilariga oid mashqlarda va ularga tanlangan misollarda orfografiya, savodxonlik masalasi hech yoddan ko'tarilmasligi shart.

Asosiy va muhim punktuatsion xatoliklar biror ishorani tushirib qoldirish (ergash gaplar bilan bosh gaplar orasida, ajratilgan bo'laklarda vergul qo'ymaslik, kirish so'z yoki kirish birikmalarni bir tomondangina vergul bilan ajratish kabilari), o'rinsiz ortiqcha ishoralar ishlatib qo'yish (ega va kesim orasida vergul qo'yish, ajratilmagan bo'lakni vergul bilan ajratish kabi), bir ishora o'rniga ikkinchisini qo'llash (uyushiq bo'lakni umumlashtiruvchi so'zdan vergul bilan ajratish. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar orasida tire o'rniga ikki nuqta yoki aksincha qo'yish kabilari) o'quvchilarning tipik punktuatsion xatolari bo'lib, o'qituvchi bu xatolarni tugatish borasida muntazam ish olib borishi zarur.

Bu punktuatsion xatolar ma'lum sintaktik qoidalarini puxta o'zlashtirmaslik, binobarin, uni esdan chiqarish yoki bir-biriga o'xshash konstruktsiya, yoxud sintaktik kategoriyalarni bir-biridan farqlay olmaslik sababidan kelib chiqadi.

Punktuatsion xatoliklarni tuzatish sintaktik qoidalarini puxta o'zlashtirishga-gaplarni va ayrim gapni bo'laklarga ajrata bilish, gap va gap bo'laklari orasidagi sintaktik hamda mazmun aloqasini yaxshi bilishga bog'liqdir. Ayniqsa, o'xshash sintaktik kategoriyalarni (undalma va ega, ajratilgan va uyushgan bo'laklar, ergash gap va so'z birikmasi kabilarni) qiyoslash yo'li bilan o'rganishning, grammatik qoidalarini mashqlar orqali qayta-qayta mustahkamlashning muhim ahamiyati bor.

Ma'lumki, ko'pchilik tinish belgisi ma'lum bir intonatsiyaga mos keladi. O'quvchi ifodalangan gapda u yoki bu sintaktik kategoriya mavjudligini (masalan, uyushiq bo'laklarda sanash ohangi, ajratilgan bo'laklarda ohangning ko'tarilishi yoki pasayishi. Gaplar orasida pauza kabilarni) sezib tursin. Bu hol tinish belgilarini ishlatish borasida ma'lum malaka hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Har bir tinish belgisi kelgan o'rinda qanday intonatsiya bo'lishini o'quvchilarga uqtirish uchun alohida og'zaki va yozma mashqlar o'tkazish zarur. Bu narsa nutqni o'stirishga, ifodali o'qish ko'nikmalarini hosil qilishga ham yordam beradi. Zotan, tinish belgilarini to'g'ri ishlata bilishdan asosiy maqsad savodxonlikni ko'tarishgina emas, ifodali nutq malakasini hosil qilish hamdir.

Shuni unutmaslik kerakki, o'quvchidan tinish belgilarini to'g'ri ishlata bilish malakasi og'zaki va yozma mashqlarni muntazam o'tkazib turish, insho va bayon hamda diktantlar o'tkazganda, bu masalaga alohida ahamiyat berib borish orqali vujudga keladi.

Punktuatsion mashqlarni analitik va sintetik xarakterdagi mashqlar turiga ajratish mumkin. Analitik xarakterdagi mashqlarga punktuatsion tahlil (matndagi u yoki bu belgining nima sababdan qo'yilgani yoki qo'yilmaganini o'quvchilarning og'zaki va yozma tushuntirib berishlari, yoddan biror matnni yozish (oldin o'qib o'rganilgan matnning tinish belgilarini o'rniga qo'yib yoddan yozish), sintaktik tahlillar (qo'shma gaplar yoki gapning ayrim bo'laklarni ajrata bilish, zarur o'rinda u yoki bu belgini qo'yib chiqish, qo'yilgan belgini tushuntirib berish) kabi mashqlarni ko'rsatish mumkin.

Sintetik xarakterdagi mashqlar kengroq va murakkabroq bo'lib, ularga tinish belgilarisiz yozilgan matnga zarur tinish belgilarini qo'yib chiqish, ma'lum qoidalarga mustaqil ravishda yoki biror asardan misollar topish, berilgan so'zlar yordami bilan mustaqil ravishda turli sintaktik konstruksiyalar hamda bog'langan matnlar tuzish, sxema va tablitsalar bilan ishlash, turli xil diktantlar va turli stilistik mashqlar yozish, ma'lum sintaktik va punktuatsion qoidalarni o'z ichiga olgan bayon va insholar yozish, ayrim jumla va bog'langan matnni ifodali o'qish kabilar kiradi.

Tinish belgilarini ishlatish o'rinlari nazariy jihatdan izohlanishigina kifoya qilmaydi, albatta. Har bir qoida bir necha xil mashqlar bilan qayta-qayta mustahkamlangandagina, o'quvchiga singishi mumkin. Bunday ishlar adabiy matnni ifodali o'qish malakasi hosil bo'lishini ta'minlaydi, bu bilan ona tili darslari adabiy o'qish va adabiyot darslarini to'ldiradi.

Tinish belgilarini ko'rgazmali qurollarsiz o'rgatishni tasavvur etish mumkin emas. Bunda o'qituvchi mavjud tinish

belgilari jadvallaridan foydalanishi yoki o'zi ana shunday tablitsalar tuzishi lozim.

Punktuatsiyani o'rgatishning dastlabki davri

Ma'lumki, dastur va darslikka ko'ra, punktuatsiya masalalari sintaksisga bog'langan holda, qisman boshlang'ich sinflarda, so'ngra VII va VIII sinflarda o'rganiladi. Yuqori sinflarda esa turli yozma ishlar o'tkazilganda, punktuatsion belgilarning ishlatilishi haqida qoidalar o'quvchilarning esiga solinib, mustahkamlanib boriladi.

Tinish belgilarining ishlatilish qoidalarini o'zlashtirish va bu sohada ma'lum bir malaka hosil qilish uzoq vaqt muttasil ish olib borishni talab qiladi. Shuning uchun tinish belgilari ustidagi mashg'ulotni VII sinfdagina o'tishni kutib o'tirmay, bu sohadagi ishni V sinfdan boshlamoq kerak.

Dastur bo'yicha V sinfnining birinchi choragida boshlang'ich sinflarda o'tilgan sintaksis va tinish belgilariga oid ma'lumotlar takrorlanadi. Bu o'rinda gap oxirida ishlatiladigan nuqta, so'roq va undov belgilarining qo'yilishi, uyushiq bo'laklarda vergulning ishlatilishi hamda va, ammo, lekin, biroq bog'lovchilari orqali bog'langan qo'shma gaplarda tinish belgilari, shuningdek, ko'chirma gapning muallif gapidan avval va keyin kelganida qo'llanadigan tinish belgilarini qaytarish zarur bo'ladi.

Sodda gapda tinish belgilarining ishlatilishini o'qitish metodikasi

Gapning mazmun jihatdan turlaridan so'ng qo'yiladigan tinish belgilari

Ma'lumki, sintaksis 7-sinfdan boshlanadi. Shu davrdan boshlab tinish belgilarining ishlatilishi muntazam ravishda o'qitilib boriladi. Sintaksis bobini boshlashda sintaksis haqida

umumiy tushuncha beriladi. Gap va uning tuzilishi, gapda fikriy va intonatsion tugallik haqida ma'lumot berib bo'lingandan so'ng, sintaksis bo'limiga punktuatsiyaning qo'shib o'rganilishi, punktuatsiyaning maqsadi, vazifasi, fikrni ifodalashdagi roli haqida umumiy ma'lumot beriladi. Bu masala ustida tinish belgisining o'zgartirilishi gap ma'nosiga ta'sir etadigan misollar keltirish, ularni tahlil etib berish

mashg'ulotlari o'tkaziladi: Elchiga o'lim, yo'q shafqat. Elchiga o'lim yo'q, shafqat. Birinchi gapda vergul elchining o'ldirilishi, ikkinchi gapda elchiga o'lim yo'qligini anglatyapti.

(O'quvchilarga mustaqil ravishda tinish belgilarining o'zgarishi bilan mazmundagi o'zgarishni izohlab berishni talab etuvchi gaplar berib, mustaqil ravishda ishlashlarini tashkil etish mumkin).

Tinish belgilari qo'yilmagan matnlar o'qitilib, o'quvchilar qiynalganini ko'rib, o'qituvchi matnni o'qish va fikrni tushunishning qiyinligi tinish belgilarining bo'lmasligi sababli ekanligini aytib, tinish belgilari matnni ayrim gaplarga, gaplarni esa ma'lum qismlarga bo'lishda katta xizmat qilishini ko'rsatadi.

Gap mazmunining murakkablashishi gapning ohangi va tinish belgilariga ta'sir etadi. O'quvchilarni gaplarning oxirida nuqta, so'roq, undov belgisi va ko'p nuqtani to'g'ri ishlata bilishga, fikrni to'g'ri ifodalashga odatlantirish darak, so'roq va undov gaplarni aniq farqlay olishga, ularning mohiyatini, mazmunini va, ayniqsa, grammatik belgilarini to'g'ri tushuntira bilishga bog'liqdir. Buning uchun turli xil amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Masalan:

1. Tinish belgilari qo'yilmagan matn berib, undagi belgilarni qo'yib ko'chirish topshiriladi.
2. Qo'shma gaplarni sodda gaplarga va sodda gaplarni qo'shma gaplarga aylantirib yozish, zarur tinish belgilarini qo'yish topshiriladi.
3. Matn ifodali o'qitiladi, tinish belgilarining qo'yilish sababi so'raladi. Berilgan matn ichidan darak, so'roq, undov gaplar alohida-alohida ajratib yozdiriladi.
4. O'quvchilarga qoidaning har bir bandiga mustaqil misollar topish vazifasi topshiriladi.
5. Turli xil yozma ishlar, xususan diktant, insho o'tkaziladi.
6. O'quvchilarga ma'lum bir tinish belgisining qo'yilishiga doir mustaqil ravishda yozma yoki og'zaki misol toptiriladi.
7. Turli uslubiy mashqlar o'tkazish mumkin (chunonchi, biriktiruv yoki boshqa bir xil bog'lovchili uyushiq bo'laklarning bog'lovchilarini zidlov bog'lovchilar bilan almashtirish yoki bog'lovchisiz uyushiq bo'laklarga zidlovchi bog'lovchi qo'shish, mazmunga mos kelgan bog'lovchilar qo'yish, berilgan gaplar tarkibini kengaytirish kabi)

Qo'shma gaplarda q'llaniladigan tinish belgilarini o'rgatishda quyidagicha amaliy ishlar o'tkazish mumkin:

1. O'quvchilarga mustaqil misol toptirish hamda ma'lum bir gap berib, unga boshqa gap qo'shib, qo'shma gap hosil qilishni va ularni bog'lovchilar orqali bog'lashni, kerakli tinish belgisini qo'yish vazifasini topshirish mumkin.

2. Qo'shma gaplar yozdirilib, zarur o'rinlarga tinish belgilarini qo'yish va izohlashni talab etish mumkin.

3. Tayyor matn berilib, undagi tinish belgilarining qo'yilishini izohlab berishni talab etish mumkin.

4. O'quvchilarga sodda gaplar berilib, ulardan ergash gapli qo'shma gaplar tuzish va zarur o'rinlarga tinish belgilarini qo'yishni talab etish mumkin.

Xullas, tinish belgilarining nima asosda qo'yilishi, qanday printsiplarda ishlatilishi masalasining yolg'iz nazariy ahamiyatigina bo'lmay, bu masalaning katta amaliy, metodik ahamiyati ham bor. Tinish belgilarining qanday asoslarda ishlatilishini aniqlash bu belgilarni ongli ravishda o'zlashtirishga sabab bo'ladi va shu asosda tushuntirish metodi hamda amaliy mashq turlari belgilab chiqiladi.

Tinish belgilari ham ma'lum mazmunni, ma'lum maqsadni ifodalashda q'llanuvchi vositalardan biridir. Ma'lum o'rinda biror maqsadda ishlatilgan tinish belgisi o'ziga xos intonatsiyaga mos kelishi (ko'proq o'rinlarda) yoki o'ziga xos intonatsiyaga mos bo'lmasligi ham (kamroq o'rinlarda) mumkin. Gapning strukturasiga munosabat jihatdan qaraganimizda,

tinish belgilari ko‘pincha gapning sintaktik bo‘linishi bilan bog‘lanadi. Shuning uchun ham tinish belgilarining intonatsiya va gapning qurilishi bilan munosabati masalasi konkret tinish belgisi bilan, shu belgining konkret qo‘llanish o‘rni bilan belgilanadi. Bunda bir xil ishoraning qo‘llanishi ko‘proq gapning strukturasi bilan bog‘lanishini, boshqa bir xil ishoraning ishlatilishi ko‘proq mazmunga bog‘liq bo‘lishini ko‘rish mumkin.

Tekshirish savollari

1. Punktuatsiyaning maqsadi va nazariy asoslarini izohlang.
2. Tinish belgilari va ularning turlari, vazifasi haqida gapiring.
3. Tinish belgilarining ishlatilish o‘rinlarini tushuntirish yo‘llarini ayting.
4. Tinish belgilarini o‘qitish metodikasi haqida so‘zlang.
5. Punktuatsiyaning intonatsiya, grammatik qurilish va mazmunga munosabati qanday ?

Tayanch tushunchalar

Punktuatsiya atamasi. Punktuatsiyaning maqsadi. Tinish belgilari. Tinish belgilarining vazifasi. Punktuatsiyaning intonatsiya, grammatik qurilish va mazmunga munosabati. Intonatsiya. Punktuatsiya o‘rgatish metodikasi. Induktiv va kuzatish metodlari.

10-ma’ruza (2 soat)

ONA TILI DARSLARIDA ŸTKAZILADIGAN TAHLIL TURLARI VA ULARNING YOZMA NUTQNI ŸSTIRISHDAGI ROLI

Reja

1. O‘quvchilarning yozma nutqini o‘stirishda tahlillarning roli.
2. Tahlil turlari.
3. Fonetik tahlil va uni o‘tkazish tartibi.
4. Morfologik tahlil va uning ahamiyati.
5. Sintaktik tahlil va uning turlari.

Adabiyotlar

1. Turdiev B. Yozma nutqni o‘stirish yuzasidan praktikum. -T.: O‘qituvchi, 1980 (o‘quv qo‘llanma).
2. Nazarova S. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. -T.:O‘qituvchi, 1992.
3. To‘xliiev B.,Shamsieva M., Ziyadova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi, 2006.
4. Azizxo‘jaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi, 2006.
5. Jalolova L. O‘quvchilar savodxonligini oshirishda grammatik tahlilning roli.- Andijon.

O‘quvchilarning yozma nutqini, savodxonlik darajasini oshirishda grammatik tahlillar muhim o‘ringa ega. O‘quvchilar tovush va harflar, ularning turlari, kelish o‘rni, yozilishi, bo‘g‘in, urg‘u haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lsa, imlo xatolariga yo‘l qo‘ymaydi. Gap bo‘laklari, so‘z birikmasi, gapning qurilishi va ularning turlarini yaxshi o‘rgangan bo‘lsa, uslubiy xatolarning oldi olinadi.

Shu ma’noda yuqoridagi bilim va malakalarni grammatik tahlillar mustahkamlaydi.

Ona tili darslarida til sathlarini o‘rganish jarayonida fonetik, leksik, morfologik, sintaktik va uslubiy tahlil turlarini o‘tkazib borish o‘rganilgan qoidalar, ya’ni nazariy ma‘lumotlarni mustahkamlashga katta yordam beradi. Shu bois ularni o‘rganish, qo‘llanish tartiblarini

o'quvchilar ongiga singdirish juda muhim. Biz quyida bo'lajak o'qituvchilarga ayrim tahlil turlarining o'tkazilishi yuzasidan ma'lumotlar berib o'tamiz.

Quyi sinflarda ona tili darslarida o'tkaziladigan sodda fonetik tahlil namunasi quyidagicha:

1	So'z	Ona
2	Harf	3
3	Tovush	3
4	Unli	2
5	Undosh	1 (N)
6	Jarangli	1 (N)
7	Jarangsiz	-
8	Portlovchi	-
9	Sirg'aluvchi	
0	1 Qorishiq	
1	1 Bo'g'in	2
2	1 Ochiq bo'g'in	2
3	1 Yopiq bo'g'in	-
4	1 Urg'u tushgan bo'g'in	-na
5	1 Sonor, burun tovush	n

Fonetika bo'limi to'la o'tib bo'lingach, tahlil tartibi murakkablashadi.

Murakkab fonetik tahlil quyidagicha o'tkaziladi:

Fonetik tahlilni tovushlar, harflar tasnifi va urg'u hamda bo'g'in turlarini mukammal egallagan o'quvchi yaxshi bajara oladi.

Morfologik tahlil.

Morfologik tahlil mazmuniga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. So'z turkumlari bo'yicha morfologik tahlil.

2. So'z tarkibi bo'yicha (morfem) tahlil.

Morfologik tahlil, ya'ni so'zning qaysi turkumga oidligini aniqlash tartibi quyidagicha:

1. So'zning umumiy ma'nosini topish.

2. Uning morfologik belgilarini aniqlash

3. Uning gapdagi vazifasini aniqlash.

4. Shu so'zning qaysi turkumga oidligi haqida xulosa chiqarish (so'z turkumlari bo'yicha tahlil tartibi ilova qilinadi).

Morfologik tahlilda so'z turkumlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, turlari, ichki tasnifini yaxshi bilish talab etiladi.

Morfologik tahlil namunasi:

Ot ot ko'm. sifat

Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir yoki:

Vatan – ot, qae? so'rog'iga javob bo'ladi, turdosh ot, yakka ot, aniq ot, tub ot, bosh kelishikda.

sajdagoh – ot, nima?, turdosh ot, yakka ot. aniq ot, sodda ot, yasama ot (sajdaQ goh), bosh kelishikda.

kabi – yordamchi soʻz turkumi, koʻmakchi, sof koʻmakchi.

muqaddas – mustaqil soʻz turkumi, sifat, oddiy daraja, xususiyat bildiruvchi sifat, qanday (dir) ? soʻrogʻiga javob boʻladi, kesim vazifasida kelgan.

Soʻz tarkibi boʻyicha (morfem) tahlil tartibi:

1. Soʻzning oʻzagini aniqlash.

2. Qoʻshimchalarning turlarini aniqlash:

a) soʻz yasovchi qoʻshimchalar (ot yasovchi, sifat yasovchi, ravish yasovchi yoki feʼl yasovchi);

b) soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalar: turlovchi (kelishik va egalik qoʻshimchalari), tuslovchi (shaxs son qoʻshimchalari, qaysi shaxs va sonda);

v) shakl hosil qiluvchi qoʻshimchalar (otlardagi koʻplik va kichraytirish – erkalash qoʻshimchalari, feʼllardagi zamon, nisbat, mayl qoʻshimchalari, feʼlning sifatdosh, ravishdosh. harakat nomi yasovchi qoʻshimchalar hamda sonlarning maʼno turlarini yasovchi qoʻshimchalar)

3. Soʻzning negizi (soʻzning oʻzakQyasovchi qoʻshimchali qismi) ni aniqlash.

Soʻz tarkibi boʻyicha tahlil namunasi: Soʻz-serquyoshligimizdan

Ser -	quyosh	-lig(k)	- imiz	- dan	
qoʻshimcha,	oʻzak,	qoʻshimcha,	qoʻshimcha,	qoʻshimcha,	
soʻz yas.q.,	ot bilan	soʻz yas.q.,	soʻz oʻzgart.q .	soʻz oʻzgart.q.	
sif.yas.q.,	ifodalangan	ot yas. q.,	turlovchi q.,	turlovchi q.,	
old	mavhum	I shaxs	kelishik q.,		
qoʻshimcha	ot yasovchi	koʻplik	chiqish		
	qoʻshimcha	qoʻshimchasi	kelishigi		
					qoʻshimchasi

Tahlilning bu turi 6-7- hamda 10-sinf takrorlash va umumlashtirish darslarida qoʻllanilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki soʻz tarkibini yaxshi bilish, qoʻshimchalarni toʻgʻri tahlil qilishni oʻrganish oʻquvchilarning savodxonlik doirasini kengaytiradi.

Sintaktik tahlil.

Sintaktik tahlil murakkab tur boʻlib, unda soʻz turkumlarining gapdagi vazifasi, soʻz birikmasi va ularning turlari, gap hamda ularning turlari aniqlanadi.

Sodda gap tahlili.

Sodda gap boʻyicha toʻliq sintaktik tahlil 3 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Gapda soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishi (soʻz birikmasi) boʻyicha.

2. Gap boʻlaklari boʻyicha.

3. Gap qurilishi boʻyicha.

Gapda soʻzlarning bogʻlanishi boʻyicha tahlilda:

a) birikmaning teng bogʻlanishdagi yoki tobe bogʻlanishdagi turi;

b) tobe bogʻlanish boʻlsa, tobelanish turi (moslashuv, boshqaruv, bitishuv);

d) teng yoki tobe bogʻlanishni yuzaga keltirgan vositalar (bogʻlovchilar, ohang, soʻz shakllari, koʻmakchilar, soʻz tartibi) aniqlanadi.

Г ап бы л а к л а р и н и а н и= л а ш б ы й и ч а т а щ и л д а:

a) gap boʻlaklari va ularning ichki turlari belgilanadi, uyushiq va ajratilgan boʻlaklar bor yoki yoʻqligi izohlanadi;

b) gap boʻlaklari bilan munosabatga kirishgan boʻlaklar (kiritma, kiritma gap, undalmalarning mavjud yoki mavjud emasligi) koʻrsatiladi;

d) gap boʻlaklarining joylashuv tartibi (meʼyoriy tartibda yoki oʻzgargan tartibda) izohlanadi.

Gap bo'lagini aniqlash bo'yicha yana quyidagicha topshiriqlar beriladi:

So'z va so'z birikmasining qanday gap bo'lagi ekanligini aniqlang:

1. So'z yoki so'z birikmasining gapda qaysi so'z bilan bog'langanini aniqlang.

2. O'zi bog'langan so'z (bo'lak) orqali unga so'roq bering.

3. So'zning qanday grammatik shaklda ekanini aniqlang.

4. O'zi bog'langan bo'lakni ma'no jihatdan to'ldirayotgani, aniqlayotgani, o'rni, paytini bildirayotgani yoki sube'kti (egasi) ekanligiga ko'ra qaysi gap bo'lagi bo'lishi haqida hulosani chiqaring.

Gap qurilishi bo'yicha tahlilda:

a) gapning ifoda maqsadiga ko'ra turi (darak gap, so'roq, buyruq);

b) gapning his-hayajonning ifodalashiga ko'ra turi (his-hayajonsiz yoki his-hayajonli (undov) gap);

d) yig'iq yoki yoyiq sodda gapligi, to'liq yoki to'liqsiz gapligi, egali yoki egasiz gap ekanligi; egasiz gap bo'lsa: shaxsi ma'lum gap, shaxsi noma'lum gap, shaxsi umumlashgan gap, shuningdek, atov gap, so'z-gapligi izohlanadi.

Tahlil namunasi

Shubhasiz, inson ilm va mehnat bilan baxtli bo'ladi.

1. Gapda so'zlarning bog'lanishi:

Inson baxtli bo'ladi – tobe bog'lanish, moslashuv, kesim va eganing shaxs-sonda mosligi (III shaxs, birlik) gapga teng;

ilm bilan va mehnat bilan – teng bog'lanish, teng bog'lovchi va (biriktiruvchi) orqali bog'langan;

ilm bilan baxtli bo'ladi – tobe bog'lanish, boshqaruv, bilan ko'makchisi orqali bog'langan;

mehnat bilan baxtli bo'ladi – tobe bog'lanish, boshqaruv, bilan ko'makchisi orqali bog'langan.

2. Gap bo'laklarini aniqlash:

Shubhasiz, inson ilm va mehnat bilan baxtli bo'ladi.

Uyushiq bo'lak bor: **ilm bilan, mehnat bilan.**

Ajratilgan bo'lak – yo'q.

Kiritma: **shubhasiz**

Undalma – yo'q

Gap bo'laklarining joylashuvi – me'yoriy.

Inson-ega, baxtli bo'ladi-kesim, ilm bilan-to'ldiruvchi, vositali to'ldiruvchi, mehnat bilan-to'ldiruvchi, vositali to'ldiruvchi.

3. Gap qurilishi tahlili:

1. Ifoda maqsadiga ko'ra – darak gap.

2. His-hayajonning ifodalanishiga ko'ra – his-hayajonsiz gap.

3. Tuzilishiga ko'ra – sodda gap, yoyiq sodda gap, to'liq gap, egali gap.

Gap bo'laklari bo'yicha sintaktik tahlil namunasi:

1 5 3

Vatan ostonadan boshlanadi :

Vatan – ega, ot bilan ifodalangan, qaer? so'rog'iga javob bo'ladi.

ostonadan - qaerdan? ..., hol, o'rin holi, sodda hol.

boshlanadi – nima qiladi?, kesim, fe'l - kesim, sodda fe'l kesim, aniq nisbat, xabar mayli, bo'lishli, o'timsiz fe'l, hozirgi-kelasi zamon.

2. So'z birikmalari bo'yicha sintaktik tahlil namunasi:

Namuna: **Shirin so'z – jon ozig'i**

Shirin so'z- so'z birikmasi, shirin – tobe so'z, so'z – hokim so'z, sodda birikma, bitishuvli aloqa, otli birikma...

Jon ozig'i: so'z birikmasi, jon-tobe so'z, ozig'i – hokim so'z, sodda so'z birikmasi, moslashuv yo'li bilan birikkan, otli birikma.

Bunday tahlil o'quvchidan so'z birikmalari, ularning turlari, so'zlarning bog'lanish yo'llari, bog'lovchi vositalarni yaxshi bilishni talab etadi.

Gap turlari bo'yicha sintaktik tahlil namunasi:

Osmon uzoq, er qattiq.

Gap. Qo'shma gap, ikki sodda gapdan tuzilgan: Osmon uzoq. Er qattiq. Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gapga sinosim bo'lgan bog'lovchisiz qo'shma gap, darak gap.

Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston !

Gap. Sodda gap. Bir bosh bo'lakli sodda gap, shaxsi ma'lum gap. Undov gap.

Gap turlari bo'yicha sintaktik tahlil gap va uning ifoda maqsadiga, tuzilishiga ko'ra turlarni yaxshi bilishni talab etadi. Muntazam o'tkazilgan bunday tahlillar o'quvchilarning ona tilidan olgan bilimlarini mustahkamlaydi, savodxonlik darajasini oshiradi, bilim va malakalarini o'stiradi. Muayyan bir til sathi bo'yicha o'rganilgan barcha mavzularni bir vaqtda takrorlash imkonini beradi.

Demak, o'quvchilarning bilim va savodxonlik darajasini oshirish, yozma nutqini o'stirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda ona tilidan o'tkaziladigan tahlil turlari juda katta ahamiyatga ega. Tahlil turlarini o'z vaqtida, o'rinli qo'llash katta samara beradi.

Tekshirish savollari

1. Ona tilidan o'tkaziladigan tahlil turlari haqida gapiring.
2. Fonetik tahlil o'tkazish tartibini ayting.
3. Grammatik tahlil va uning turlarini izohlang.
4. Morfologik tahlil va uning ahamiyati nimada ?
5. Morfem tahlil qanday o'tkaziladi ?
6. Sintaktik tahlil va uning turlarini ayting.
7. Gap bo'laklari bo'yicha sintaktik tahlil qanday o'tkaziladi ?
8. So'z birikmasi bo'yicha sintaktik tahlil o'tkazish va uning ahamiyati.
9. Gap turlari bo'yicha sintaktik tahlil xususida so'zlang.

Tayanch tushunchalar

Fonetik tahlil. Fonetik tahlil tartibi. Morfologik tahlil. Morfem tahlil. Sintaktik tahlil (gap bo'laklari bo'yicha, so'z birikmalari bo'yicha, gap turlari bo'yicha).

Мундарижа

1. So'z boshi ----- 2
2. Yozma nutqning umumiy nazariy masalalari. Yozma nutq madaniyati va uni o'stirish vositalari -----3
3. Imlo qoidalari va yozma nutq. Yangi imlo qoidalari va undagi o'zgarishlar. Imlo lug'ati ustida ishlash ----- 9
4. Yozma nutqni shakllantirishda yozma ishlarning o'rni. Yozma ish turlari. Asosiy va yordamchi xarakterdagi yozma ishlar-----13
5. Diktant va uning turlari. Ta'limiy va tekshiruv diktantlari----- 17
6. Bayon va uning turlari. Bayon o'tkazish bosqichlari, bayonni tekshirish, baholash va tahlil qilish ----- 21
7. Insho va uning turlari. Inshoga tayyorgarlik, uni tekshirish, baholash va tahlil qilish ----- 25

8. O‘zbek tilida ish yuritish. Ish qog‘ozlarining ijtimoiy hayotdagi o‘rni, ahamiyati va turlari ----
----- 37
9. Ona tili darslarida ŷtkaziladigan tahlil turlari va ularning yozma nutʻni ŷtirishdagi roli -----
----- 48